

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.M. BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK

BOZOROV AZAMATJON QOSIMJON O'GLI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XITOIY XALQ RESPUBLIKASI
BILAN ILMIY VA MADANIY SOHALARDAGI ALOQALARI.
(1991 – 2017 yy.)

Mutaxassislik. 5 A 220301 «O'zbekiston tarixi»

Magist darajasini olish uchun

D I S S E R T A T S I Y A

Ish ko'rib chiqildi va
Himoyaga qo'yildi.

Ilmiy rahbar.
_____ **dots. S.A. XOSHIMOV**

O'zbekiston tarixi kafedrası
mudiri, **dotsent. S.A. Xoshimov**
_____ «__» _____ 2018 й.

ANDIJON - 2018 YIL

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I – bob. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi hamkorlikni o'rganilganlik darajasi, manbaviy asoslari va yuzaga kelish tarixi.....

1.1. Mavzuni o'rganilganlik darajasi va manbaviy asoslari.....

1.2. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi hamkorlikning tarixiy ildizlari.....

II – bob O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari va fan-texnika sohalaridagi hamkorlik.....

2.1. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari va tamoyillari.....

2.2. O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidafan-texnika sohalardagi hamkorlik.....

III – bob. O'zbekiston - Xitoy madaniy aloqlari va hamkorlikning zamonaviy holati.....

3.1.O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasida madaniy hamkorlikning asosiy jihatlari.....

3.2. Ikki mamlakat madaniy aloqalarining rivojlanishida turizm va sport sohalarining tutgan o'rni.....

Xulosa.....

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng jahon hamjamiyatida o'z o'rnini, o'z mavqeyi va o'z so'ziga ega bo'ldi. Dunyo miqyosidagi ko'plab mamlakatlar yurtimiz bilan deyarli barcha jabhalarda xalqaro do'stona aloqalarni o'rnatib kelmoqda. Hozirda o'zining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan dunyoning ko'plab mamlakatlariga o'rnak bo'layotgan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) hamda O'zbekiston o'rtasida madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida do'stona aloqalar o'rnatib kelinmoqda. Ayniqsa, ta'lim fan - texnika va madaniy sohalaridagi o'rnatilgan munosabatlar kun sayin rivojlanib, o'z natijasini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan tashqi siyosat xaqida Prezidentimiz Shavkat Miramanovich Mirziyoev 22 dekabr 2017 yilda Oliy Majlisga qilgan murojotida quyidagi fikrlarni ilgari surgan edi. O'tgan davr mobaynida tashqi siyosat sohasida xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishildi.

2017 yil 21 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi. 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Natijada 400 dan ortiq bitim va kelishuvlarga erishildi, qariyb 60 milliard AQSH dollari xajmida savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi¹.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. O'zbekiston ochiqlik, tenglik va ko'p tomonlamalikka asoslangan ilmiy - madaniy hamkorlikni amalga oshirib, jahon miqqiyosidagi integratsion jarayonlarga chuqur kirib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan davlatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга муројоти. Тошкент, 2017.- Б.18.

joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz"².

O'zbekiston tashqi aloqalarining asosiy maqsadi jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash, barcha mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy hayotning hamma jabhalari: ilim-fan, ta'lim, texnika, madaniyat, sport, turizm va boshqa sohalarida teng huquqli, o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishdan iborat.

Hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasi bilan keng miqqiyosda aloqalarni amalga oshirish O'zbekiston ilmiy, madaniy hayotining rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Shu bilan birga, Xitoy tashqi siyosiy strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan hamkorlik eng asosiy va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xitoy va O'zbekistonning bir qator umumiy manfaatlar birlashtirishi va ular muvaffaqiyatli hamkorlikning asosi bo'lib xizmat qilishi, o'zaro hamkorlik tenglik, ochiqlik tamoyillariga asoslanishi, hech bir kelishuv ikki davlat havfsizligiga qarshi qaratilmasligi Xitoy rahbariyatining asosiy pozitsiyasi hisoblanadi.

Madaniy aloqalar tutashib qadim o'tmish bilan bog'langan O'zbekiston – Xitoy xalqlari o'rtasidagi ishtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar bugungi kunda zamonaviy hamkorlik talablariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. O'zbekiston jadallik bilan taraqqiy etayotgan va jahondagi integratsion jarayonlarda salmoqli o'rin tutayotgan Xitoy bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida qiziqish bilan qarayotgan bir paytda, Xitoy ham O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi teng sheriklikka asoslangan hamkori sifatida ettirof etmoqda.

O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasining Shanxay Hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamjihatligi mintaqada hafsizlik, barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Har ikki davlat mintaqadagi havfsizlik barqarorlik o'zaro iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlikni samarali rivojlantirishning bosh omili ekanini chuqur o'ylagan holda mazkur sohadagi munosabatlarni taraqqiyotini belgilashga alohida e'tabor qaratmoqda. Zero,

²Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008 . –B. 114.

birinchi prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning havfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni anashu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir"³.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda zamonaviy tarix fani oldida turgan muhim dolzarb vazifalardan biri mustaqil rivojlanish jarayoni, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosiy faoliyatini chuqur tadqiq etish va har tomonlama xolis yoritishdan iborat. Shuning uchun ham respublika tashqi siyosatini shakllanishi, asosiy tamoyillari, jahon mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tarixini va tadrijini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik aloqalari bugunga qadar to'la o'rganilgan emas. O'zbekiston – Xitoy hamkorligini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zamonaviy tarix fanida alohida ahamiyat kasb etgani holda, O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda respublikamizning jahon xamjamiyati bilan aloqalari masalalarini har tomonlama qamrab olishga yordam beradi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ektini O'zbekistonning 1991-2017 yillar davomidagi Xitoy Xalq Respublikasi bilan ilmiy-madaniy aloqalari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti sifatida ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning tarixiy ildizlari, ilmiy, madaniy sohalaridagi aloqalar jarayoni o'rganiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi, ilmiy va madaniy hamkorlik masalasini ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki va jahon

³ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. –18 b.

hamjamiyatiga to'laqonli a'zo sifatida kirib borishini, uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzini ko'rsatishga ko'maklashadi.

Ushbu maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar huquqiy asoslarining shakllanish jarayonini yoritish;
- madaniy hamkorlikning asosiy shakllari va yo'nalishlarini ko'rib chiqish. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda xalq diplomatiyasining turli shakllaridan foydalanishning ahamiyatini anglash;
- fan va ta'lim sohasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib berish, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalarni aniqlab olish;
- ijtimoiy va ma'naviy masalalarni hal qilishda turizm va sport sohalaridagi hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatib berish. Mazkur sohalardagi hamkorlikning xalqlarni ma'naviy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirishdagi ahamiyatini yoritib berish;
- ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik misolida O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar jarayonidagi ishtirokini ko'rsatib berish;

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha fikr mulohaza, taklif va tavsiyalarni bayon etish.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara sifatida 1991-2017 yillar olindi. Ushbu davr O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishida alohida o'rin tutgan. O'z istiqboliga erishgan O'zbekistonda tez fursatda mustaqil tashqi siyosat tamoyillari ishlab chiqildi va tashqi siyosiy hamda iqtisodiy faoliyatning huquqiy bazasi yaratildi. Aynan mana shu davrda O'zbekiston – Xitoy hamkorligining asosiy tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi, davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari davomida munosabatlarni tartibga soluvchi shartnoma va bitimlar tizimi vujudga keldi.

Ishning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ko'p yillar davomida O'zbekiston – Xitoy ilmiy – madaniy aloqalarni

yangicha jihatlarini ilmiy asoslash, bu boradagi hamkorlikning barcha qirralarini ochib berish va bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqot ishlarini solishtirib ilmiy muomilaga kiritish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi ishtiroki masalasi yurtimiz tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, mustaqil tashqi siyosat tamoyillarini yaratilishi, jahondagi siyosiy jarayonlardagi ishtirokini tadqiq etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Sovet davri va mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar chop etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni chuqurroq tahlil etish maqsadida bu bo'limga alohida paragraf ajratilgan bo'lib, birinchi bob birinchi paragrafda mazkur masala batafsil yoritiladi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosi bo'lgan milliy g'oyaning umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, e'lon qilingan tamoyillari, demokratiyaning jahon miqyosida e'tirof etilgan prinsiplari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining yangi tarixini yaratish to'g'risida" va 1997 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari tadqiqotning nazariy – uslubiy asosi sifatida xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutqlari va xalqaro anjumanlardagi chiqishlarida O'zbekistonnig xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi, tashqi aloqalarni milliy manfaatlar asosida amalga oshirish siyosati nazariy-metodologik jihatdan asoslangan, tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonning xalqaro miqyosda katta muvaffaqiyatlarga erishish strategiyasi belgilab berilgan.

Shuningdek, tarixshunoslikning haqqoniylik, xolislik, tarixiylik, o'zaro aloqadorlik, o'zaro qiyoslash kabi metodologik tamoyillari dissertasiyaning nazariy va uslubiy asoslari qatoriga kiradi.

Dissertasiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu izlanishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning ilmiy-tahliliy xulosalari, ko'plab ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari asosida to'plangan materiallar O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi bilan ilmiy madaniy sohalarni turli yo'nalishlarda olib borayotgan hamkorlik aloqalarini ochib berishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorligi qadim o'tmishga borib taqaladi. Buyuk Ipak yo'li har ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli ijtimoiy va madaniy aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va mazkur hamkorlik buguni kunda zamonaviy yo'nalishlarda davom etmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni ilmiy asoslash, xulosalar berish, bu boradaqilingan ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanib yangicha nazariyalar berish tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyatini kasb etadi.

Bundan tashqari, dissertasiya materiallaridan mustaqil O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha umumlashtiruvchi tusga ega tadqiqotlarni tayyorlashda, respublikaning xalqaro faoliyati tarixiga bag'ishlangan monografik ishlarni yaratishda, madaniyat, sport sohalari bo'yicha faoliyat yurituvchi tashkilotlar faoliyatini yoritishda, turizim, mahalliy sayyohlik agentliklari yo'l ko'rstkichlarini tayyorlashda ham foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston-Xitoy hamkorligi masalalarini yoritish uchun turli manbalardan olingan materiallardan keng ko'lamda foydalanilgan. Xususan O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining M-2, M-7 fondlaridagi materiallardan keng foydalanilgan. M-2 fondida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari Kengashi faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadi.

Markaziy davlat arxivining M-7 fondida saqlanayotgan hujjatlar o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining O'zbekiston

- Xitoy hamkorligida tutgan o'rnini yoritib berishga xizmat qiluvchi bir qator hujjatlar tahlil etildi hamda ilmiy muomalaga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy arxivlarida ham O'zbekistonning xorijiy davlatlar, xususan, Xitoy bilan xalqaro aloqalariga oid muhim ma'lumotlar - yillik hisobotlar va axborot-ma'lumotnoma tusidagi materiallar saqlanmoqda.

“O'zbekturizm” Milliy kompaniyasi arxivida saqlanayotgan materiallar har ikki mamlakat o'rtasida sayyohlar almashish, turizm sohasidagi hamkorlikka oid ishlarning holatini yoritish imkonini beradi.

Tadqiqotning bir qator masalalarini yoritishda O'zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo'mitasidan olingan materiallar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dissertasiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertasiya uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.Bob. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi hamkorlikni o'rganilganlik darajasi, manbaviy asoslari va yuzaga kelish tarixi.

I.1. Mavzuni o'rganilganlik darajasi va manbaviy asoslari

O'zbekistonning yangi tarixini o'rganish, manbalarni ko'paytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish mustaqillik sharoitida yangicha tusga ega bo'lib bormoqda. O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi ishtiroki masalasi yurtimiz tarixini o'rganishdagi yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, Markaziy Osiyodagi integrasiyon jarayonlarda faol ishtirok etishi, mustaqil tashqi siyosat tamoyillarini yaratilishi, jahondagi siyosiy, ishtimoiy jarayonlardagi ishtirokini tadqiq etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Sovet davrida va mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy – madaniy faoliyatiga taalluqli bir qator ilmiy ishlar qilingan. O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki masalasini to'laqonli yoritish natijasida tadqiqot ishlarini qiyosiy tahlil etish imkoni yaratiladi. Tadqiqot

mavzusi va davriy chegarasiga bog'liq bo'lgan adabiyotlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh adabiyotlarga O'zbekistonni mustaqillikka erishkunga qadar bo'lgan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Jumladan Jumladan CH.A.Abotalipov, G.Inamjanova, K.Karimov, U.A.Rustamov, M.Bobaxo'jaev, S.K.Ziyadullaev, SH.Abdullaev, I.X.To'xtaxo'jaeva, H.Ziyaev, va boshqalarning tadqiqotlarida⁴ O'zbekistonning tashqi dunyo bilan aloqalari ilmiy asosda o'rganishga harakat qilingan. Lekin mazkur tadqiqotlarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ilmiy, madaniy sohalaridagi hamkorligi to'laqonli yoritib berilmagan, ayrim adabiyotlarda esa bu masala umumiy o'rganilgan xolos. XX asrning 60 – 70 yillarida SSSR va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik vujudga keldi. Chegaralardagi muammolar hamda sovet va xitoy kommunistlari o'rtasidagi g'oyaviy kelishmovchiliklar o'zaro munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. Bu holat O'zbekistonning halqaro miqqiyosdagi aloqalari tarixi o'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar manashunday vaziyatda himoya qilinganligi uchun o'z davri talablaridan kelib chiqqan holda hukumron mafkura ta'sirida vujudga keldi.Ularda O'zbekistonning jahon hamjamiyatida faol ishtirokchi bo'lganligini yozishga harakat qilinganligiga qaramasdan, aslida O'zbekiston SSSR ma'nfaatlaridan kelib chiqqan holda halqaro munosabatlarda ishtirok qilgan. Masalan Ch.A. Abotalipov⁵ O'zbekistonning satsialistik davlatlar bilan ilmiy-madaniy aloqalari bilan bir qatorda dunyodagi kapitalistik davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar bilan aloqalari haqida ham ma'lumot bergan. Muallif O'zbekistondagi o'z mahsulotlarini xorijga ekspert qilgan korxonalarining joriy

⁴Abdotalipov CH.A. O'zbekistonningxalqaroaloqalari. – Toshkent: O'zdevnashr, 1964. – 175 b.; Инамжанова Гю Узбекистан на международной арене. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – 47 с.; Каримов К. Узбекистан в социалистическом содружестве – Ташкент: Узбекистан, 1975. – 196 с.; Рустамов У.Ф. Советский Узбекистан на международной арене. – Ташкент: Узбекистан, 1979. – 207 с.; Бабаходжаев М. Участие Уз ССР в культурном сотрудничестве СССР со странами Ближнего и Среднего Востока//Общественные науки в Узбекистане.// 1981, № 7. –с 10-13.; Зиядуллаев С. Экономика Узбекской ССР в едином народно-хозяйственном комплексе страны. – Ташкент: Фан, 1983. – 41 с.; Абдуллаев Ш.М. Узбекистан в интернациональном содружестве СССР со странами членами СЭВ. – Ташкент: Фан, 1984. – 203 с.; То'xtaxo'jaevaI. SovetO'zbekistonningxalqaroaloqalari. – Toshkent: O'zbekiston. 1985. – 24 b.; ZiyaevX. O'zbekistonningxorijiy mamlakatlarbilan iqtisodiy va madaniy aloqalari (1980 – 1985 yy.) – Toshkent: Fan, 1986. – 56 b.

⁵Abotalipov CH.A. O'zbekistonningxalqaroaloqalari. – Toshkent: O'zdevnashr, 1964. – 175 b.

arxivlari hujjatlarini chuqur o'rganib tahlil qilgan va ilmiy muomalaga kiritgan. Asarda keltirilgan tarixiy dalillar va tahliliy ma'lumotlar keltirilgan-ki, bu esa asarning qimmatini oshirgan.

K.Karimovning monografiyasida O'zbekistonning xalqaro aloqalari o'rganilgan asarlar tahlil qilingan. U.A.Rustamov⁶ va Sh.M.Abdullaev⁷ monografiyalarida O'zbekistonning satsialistik davlatlar bilan hamkorligiga e'tibor qaratilgan, O'zbekistonning O'zaro Iqtisodiy yordam kengashi doirasidagi aloqalari masalasi yoritilgan. Biroq mazkur asarlar XX asrning 60-80 yillarida, SSSR va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan davrda yaratilganligi sababli, mualliflar O'zbekistonning Hindiston, Vetnam, Laos, KXDP, Mo'g'iliston, Yevropadagi mamlakatlar bilan aloqalarini batafsil yoritgan holda Xitoy bilan bo'lgan aloqalar haqida ma'lumot bermaganlar. H.Ziyayev monografiyasida⁸ esa O'zbekistonning XX asr 80 yillarining ikkinchi yarmida amalga oshirilgan xalqaro aloqalari xususida ma'lumotlar berilgan.

Sovet – Xitoy munosabatlarining tarixi, hamkorlik aloqalarining o'ziga xos xususiyatlari I.I.Kovalenko, O.G.Borisov va B.G.Koloskov, S.Yo'ldoshev, B.N.Slavinskiy kabi tadqiqotchilar asarlarida o'z ifodasini topgan⁹. Biroq ushbu mualliflar asarlarida Sovet – Xitoy munosabatlarida O'zbekiston va voshqa ittifoqdosh respublikalarning tutgan o'rni masalasini yoritib o'tmaganlar.

B.Ahmedov o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo, siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalarni o'rganishda mahalliy manbalarning o'rni masalasiga alohida e'tabor qaratgan¹⁰. Jumladan, muallif at-Tabariyning “Tarixi ar-rasul va-l-muluk va-l-xulafo” asarida VII-VIII asrlarda Sosoniylar Eroni, O'rta Osiyo va Xorazmni Xitoy bilan aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar keldirilganligi

⁶Рустамов У.А. Советский Узбекистан на международной арене. – Ташкент: Узбекистан, 1979.- 207 с.

⁷Абдуллаев Ш.М. Узбекистан в интернациональном содружестве СССР со странами членами СЭВ. – Ташкент: Фан, 1984. – 203 с.

⁸Ziyaev H. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari (1980-1985 yy.) -Toshkent: Fan, 1986. - 56 b.

⁹ Коваленко И.И. Советский Союз в мир и коллективную безопасность в Азии. - М.: Наука, 1976. - 431 с.; Борисов О.Б., Колосков Б.Г. Советско-китайские отношения, 1945 – 1980. – М.: Мысль. 1980. – 638 б.; Yo'ldoshev S. Tinchlikva xalqaro havfsizligi tayanchi. – Toshkent: O'zbekiston, 1968. – 38 b.; Славинский Б.Н. Внешняя политика СССР на Дальнем Востоке, 1945 – 1986. – М.: Международные отношения, 1988. – 334 с.

¹⁰Ахмедов Б. Роль Центральноазиатских источников в изучении торговых, политических и культурных связей Средней Азии с Китаем в средние века // Новое в изучении Китая. – М.: Наука, 1988. – С. 143-151.

haqida so'z yuritgan. Shuningdek muallif Al-Utbiy, Ibn al-Asir, Jamoliddin Qarshiy, Fosih Ahmad Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Z.M.Bobur, Mahmud ibn Vali, Sang Muhammad Badahshiy, Mirzo Olim Toshkandiy, Niyoz Muhammad Ho'qandiy kabilarning asarlarini tahlil etib, ularni o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalar tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligini takidlagan.

L.A.Borovkovning asarida Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi qadimgi aloqalar tarixini "Shi tsi", "Xan shu", "Da li chji", "Vey lyue", "Xou Xan shu" kabi xitoy manbalari orasida o'rganilgan va tahlil etilgan¹¹. Mazkur tadqiqotda Xan sulolasi imperatori U Di davrida Xitoydagi siyosiy vaziyat, xitoy-xun qarama-qarshiligi, Chjan Tszyanning Markaziy Osiyoga sayohati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, muallif manbalar asosida Xitoy va Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar, shaharlar o'rtasidagi masofalar, ularning joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlarni ham yozib o'tgan.

B.S.Mannopovning tadqiqotlarida qayta qurish munosabati bilan tashqi savdo, iqtisodiy va madaniy munosabatlar qamrovi kengayib, mazmunan boyiganligi, ikki mamlakat xalqlarining an'anaviy tiklashga bo'lgan harakatlar kengayganligi, Toshkentda dastlabki Sovet - Xitoy qo'shma korxonasi vujudga kelganligi to'g'risida qisqa ma'lumotlar keltirilgan¹².

Yuqoridagi sanab o'tilgan birinchi guruh adabiyotlari o'sha davir xukumron siyosati ostida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, ularda ko'plab faktik materiallar asosida o'zaro munosabatlar tarixi o'rganilgan va tahlil etilgan. Bu esa biz tadqiq qilayotgan mavzuni yoritishda ushbu manbalar muhim ahamiyat kasb etgan holda, O'zbekistonning xalqaro munosabatlarga kirib kelishini o'rganishda asosiy o'rini ekallaydi.

Ikkinchi kuruh adabiyotlarga O'zbekistonning mustaqillika erishgandan keying davrda yaratilgan adabiyotlar kiritiladi. Shuningdek E.Rtveladze¹³,

¹¹ Боровкова Б. Роль Центральноазиатских источников в изучении торговых, политических и культурных связей Средней Азии с Китаем в средние века, // Новое в Изучении Китая. – М.: Наука, 1988. С. 143-151.

¹² Mannopov B.S. Qayta qurish va o'zbekistonning tashqi aloqalari. – Toshkent, 1991. – 24 b.

¹³ Ртвеладзе Э. Великий шелковый путь: энциклопедический справочник: Древность и Среднее средневековье. – Ташкент: O'zbekistonmilliyensiklopediyasi, 1999. – 278 с.

N.E.Karimova¹⁴, A.Asqarov¹⁵, A.Xo'jaev¹⁶, O'.M.Mavlonov¹⁷ asarlarida O'zbekiston – Xitoy aloqalarining qadimiyligi ilmiy asoslab berilgan. Xususan A.Xo'jayevning asarlarida ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi aloqalar tarixi qadimiy xitoy manbalari va tadqiqotlar asosida o'rganilib chuqur taxlil qilingan hamda hamkorlikning bugungi holatiga yetarlicha asoslar keltirilgan. Muallif o'z asarida ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi aloqalarning eng qadimgi davrdan hozirgi vaqitgacha bo'lgan taraqqiyotini tahlil qilar ekan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach o'zaro munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganligini alohida takitlaydi. Shuningdek, u Xitoy O'zbekistonga alohida qiziqish bilan qarayotganligi, bir qator ilmiy – tadqiqot institutlari ilmiy nashrlarida O'zbekiston to'g'risida ko'plab qimmatli materiallar berib borilayotganligi haqida fikr yuritib, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining xitoy tilida nashr etilishi bu qiziqishning yaqqol tasdig'i ekanligini alohida qayd etgan.

N.E.Karimova xitoy manbalari va xorijlik mualliflarning asarlari asosida Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlarining XIV-XVII asrlardagi o'zaro aloqalari tarixini o'rgangan. Muallif manbalar asosida har ikki mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, o'zaro hamkorlik aloqalarini xususiyatlarini atroflicha tahlil etgan hamda qimmatli xulosalar bergan. U o'z asarida Min sulolasi imperatorlari, ularning shiorlari, hukmronlik qilgan yillari, Markaziy Osiyoga yuborilgan elchilarning tarkibi, elchilar tomonidan olib kelingan hadiyalar to'g'risida jadvallar shaklida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

O'.M.Mavlonov Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi va ilk yo'nalishlari, Markaziy Osiyo xalqlarining Buyuk Ipak yo'li orqali olib borgan xalqaro

¹⁴ Каримова Н.А. Взаимоотношения народов Центральной Азии и Китая в XIV – XVII вв. – Ташкент: Издво ТашГИВ, 2005. – 188 с.

¹⁵ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - Toshkent: Universitet, 2007. – 340 b.

¹⁶ Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 2007. – 172 с.; Uningo'zi: Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 280 b.

¹⁷ Mavlonov U. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Akademiya, 2008. – 432 b.

aloqalari to'g'risida ma'lumot bergan. Asarda Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlarining qadimgi davrda va o'rta asrlardagi o'zaro diplomatik va savdo aloqalari manbalar asosida yoritib berilgan.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, mustaqil tashqi siyosat asoslarining shakllanishi masalasi A.Qosimov va I.Vaskin hammuallifligidagi tadqiqotda o'z aksini tobgan bo'lib, unda mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati, uning asosiy tamoyillari, tashqi siyosatning huquqiy asoslari va asosiy yo'nalishlari kabi masalalar juda aniq yoritib berilgan¹⁸.

R.M.Alimov tadqiqotlarida Markaziy Osiyo masalasidagi Rossiya–Xitoy va Xitoy-AQSH munosabatlari muammolari, Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hamkorlikning samarali rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar kabi masalalar o'z aksini tobgan. U asarida ikki mamlakatning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorligiga e'tabor qaratib, mazkur tashkilot bugungi kundagi ikki mamlakat ilmiy madaniy hamkorligiga qarshi qaratilgan, terrorizm, separatizm, va ekstremizmdan himoyalovchi asosiy vosita ekanligini takidlagan¹⁹. Shunday tadqiqotlar sirasiga E.Z. Nuriddinovning tadqiqotlarini ham kiritish mumkun²⁰. U O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, mustaqil tashqi siyosat institutlarining shakllanishi kabi masalalarni o'rgangan, taxlil va xulosalar bilan boyitgan.

O'zbekiston – Xitoy o'zaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi, tarixiy shart-sharoitlari, madaniy aloqalardagi hamkorliklarning o'ziga hos xususiyatlari A.K.Qirg'izboevning “O'zbekiston Respublikasining Osiyo

¹⁸Қасимов А., Васкин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 1994. – 112 с.

¹⁹Алимов Р. М. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарк, 2005. – 464 с.

²⁰ Нуриддинов Э.З. Становления нового типа экономических отношений Узбекистана с ведущими государствами Западной Европы//Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1998. №1.; Унинг ўзи: Ўзбекистон ва Германия// Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. №2.; Унинг ўзи: Узбекистан – Чехия: плодотворное сотрудничество // Экономика и статистика. – Ташкент, 1998.№8. Унинг ўзи: Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Ташкент: Чулпан, 2002. – 216 с.

мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги” масаласига бағ’ишланган монографиясида қисман очиб берилган²¹.

Ikki мамлакат о’рたсидаги илмий ва маданий алоқаларни қадимий ildizlari ва hozirgi kundagi holatini o’rganishda O’.Mavlonov, D.Mahkamova, S.Savchuk-Kurbanov, A.Xudayqulov, N.Nurullaeva, A.Isajonov, Van Shuylin, A.Razzoqov, I.Bekmurotov, X.Isoqjonov, A.Tulyaganov va O.Limanovlarni ilmiy maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi²².

O’zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan ilmiy va madaniy sohalaridagi hamkorlik aloqalari, ularning tarixiy shart – sharoitlari haqidagi fikrlarimizni yanada boyitishda O’zbekiston-Xitoy munosabatlariga baғ’iшланган bir qator tadqiqotlarni misol qilib keltirishish mumkin. Xususan O.P.Kobzevaning ilmiy ishida Buyuk Ipak yo’lining shakllanishi, o’rganilishi va siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlanishida tutgan o’rni yoritilgan²³. Mavlonovning dissertasiyasida O’rta Osiyoda savdo yo’llarining shakllanishi va rivojlanishi, karvon yo’llari infrastrukturasi o’ziga xos xususiyatlari arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalarga asoslangan holda keng yoritilgan²⁴. Sh.T.Qo’ldoshevning tadqiqotida XVIII asr – XIX asrning o’rtalarida Qo’qon xonligi va Sharqiy Turkiston o’rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy

²¹Qirg’izboev A.K.O’zbekiston Respublikasining Osiyo mamlatlari bilan xalqaro hamkorligi. – Toshkent: Fan, 2004. 280 b.

²²Mavlonov Ў., Махкамова Д. Ўзбекистон ва Хитой қадимий алоқалари // Жамият ва бошқарув. –Тошкент, 2003.№4. – Б. 67–68.; Савчук-Курбанов С. Китай–Узбекистан: многовековые истоки торгово-экономического и культурно-просветительского партнерства // Материалы научно-практической конференции «Китай и современный мир». – Ташкент, 2009. – С. 4-13.; Каримова Н.Э. Китайские источники о взаимоотношении Китая и империи Тимуридов // Материалы научно-практической конференции «Китай и современный мир». – Ташкент, 2009., Худойкулов А., Нуруллаев Н. Ўзбекистон–Хитой ҳамкорликнинг янги босқичи // Илм сарчашмалари.– Урганч, 2006. №2. – Б. 20–22.; Исажонов А. Давлат ва ташқи иқтисодий фаолият // Бозор, пул ва кредит.– Тошкент, 1999. №3. – Б. 49–51.; Ван Шуйлинь. Хитой ишлохотлар йўлида // Бозор, пул ва кредит.– Тошкент, 1999.№3. – Б. 45–47.; Раззоқов А. Хитойда трансмиллий корпорациялар таракқиёт локомотивларидир // Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 1999. №3. – Б. 47–48.; Бекмуротов И. Ўзбекистон Хитой манфаатлар муштараклиги // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2004. №4. – Б. 65-66.; Международно – правовые аспекты сотрудничества Узбекистана и Китая в обеспечении региональной безопасности //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2007. №3. С. 30-35.; Туляганов А. Ўзбекистон Республикаси замонавий халқаро муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2007. №2. – Б. 27–35.; Лиманов О. Хитойнинг Марказий Осиёдаги стратегияси //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 1999, № 3–4. – Б. 16 – 21.

²³ Кобзева О. П. Великий шелковый путь: проблемы научной периодизации и истоки изучения европейскими учёными во второй половине XIX- начале XX вв: дис. ... канд. ист. наук – Ташкент: ИИ АН РУз, 2001.- 190 с.

²⁴ Мавлонов У.М. Коммуникации и торговые пути в Средней Азии: Формирования и этапы развития. Автореф. Дисс. ...док-ри ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2009. – 48 с.

aloqalar tarixi o'rganilgan²⁵. Mazkur tadqiqot zamonaviy hamkorlik tizimini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek T.I.Doroshenko, U.A.Saliev, A.G.Xolliiev, E.Z.Nurddinov, B.E.Tursunov, Sh.A.Sobitov, N.Sh.Ziyamov, D.D.Kurbanov, Sh.Shazamanov, D.Misharev, G.A.Tabak, D.A.Mahkamova, A.B.Sultanov kabi olimlarning tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi faoliyatining turli jihatlarioritib berilgan²⁶.

Uchinchi guruh adabiyotlariga xorijlik mualliflarning asarlari kiritildi.Xalqaro hamkorlik masalalarini xolisona yoritilishini ta'minlashda xorijiy mualliflarning asarlarini o'rganish muhum ahamiyat kasb etadi.

Bu mavzu bo'yicha bir qator horijlik tadqiqotchilar ilmiy ish yoqlashgan, jumladan N.Kohh, S.Xoffman, R.Keohane, Dj.Nay, F.Fukuyama, S.Xantington,

²⁵Кулдошев Ш.Т. Политические, экономические и культурные связи между Кокандским ханством и Восточным Туркестаном (XVIII – вср.XIX вв.). Автореф. Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2009. – 32 с.

²⁶Дорошенко Т. И. Международные связи общественных организаций Средней Азии (Опыт истории 20-е годы): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: ТашГУ,1993.- 170 л.; Салиев У. А.Международные связи Узбекистана в исторической литературе 50-80-х годов :Дисс. ...канд. ист. наук. – Андижан, АДУ, 1994. – 149 л.; Холлиев А. Г. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана с Великобританией и США. – Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент: 1998. – 177 л.; Нуриддинов Э.З. Международное сотрудничество Узбекистана со странами Европы в условиях независимости: становление, развитие, проблемы: Дисс. ... д-ра ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2000. – 305 с.; Турсунов Б. Э. Китай на пороге ХХIвека: философская и социально-политическая мысль как фактор общественного развития (историко-философский анализ). –Дисс...канд. фил.наук. – Ташкент: Институт Философии и правоведении АН РУз, 2002.- 165 л.; Сабитов Ш. А. Внешняя политика Китая в годы реформ (1978–1998 гг.) и перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан. – Дис...канд. полит.наук. – Ташкент: УМЭД, 2002.- 167 л.; Зиямов Н. Ш. Роль Узбекистана в развитии межгосударственного экономического и культурного сотрудничества стран Центральной Азии. (1991–2001 гг.) Дис... канд. ист. наук. – Ташкент: НУУ, 2002. – 171 л.; Курбанов Д. Д. Привлечение прямых иностранных инвестиций в Китайскую Народную Республику: Опыт и возможности расширения узбекско-китайского содружничества.Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2002. – 30 с.; Шазамаиов Ш. Сиёсий барқарорлик ва тараққиёт. (Хитой тажрибаси). Сиёсий фан. номз. ... дисс. –Ташкент: ТДШИ, 2002. – 139 в.; Мишарев Д. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана с Германией. Дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: НУУ, 2004. – 169 л.; Табак Г. А. Роль культурных и исторических традиций во внешней политике Республики Узбекистан: Дисс. ... канд. полит.наук. – Ташкент: УМЭД, 2004. – 191 л.; Махкамова Д. А. Узбекистан в системе международных культурных связей (особенности и закономерности исторического развития). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: УМЭД, 2005.- 147 л.; Якубов Ў. Ўзбекистон Республикасининг ташки иктисодий алоқалари. (географик жихатлари).- Геогр. фан. номз... дисс.–Тошкент: ЎЗМУ, 2005. – 141 в.; Султанов А. В.История сотрудничества Узбекистана со странами Европы в гуманитарной сфере 1991-2001гг.(на примере Австрии, Германии, Швейцарии): Дисс. ...канд.ист.наук. – Ташкент: НУУ, 2006. – 173 л.; Асадова Р.Б. Ўзбекистон – Ҳиндистон ўртасидаги ўзаро иктисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик: тарихий асоси ва замонавий ҳолати (1991–2001 йй.). – Тарих фан. номз. ... дис.– Тошкент: ЎЗР ФА Тарих институти, 2007. – 162 в.; Усаров Ф. Ўзбекистон Республикаси ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари ўртасида иктисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик (Малайзия давлати мисолида: 1991-2005 йиллар). Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2010. – 32 б.

R.Rummel²⁷ asarlarida tashqi siyosat nazariyasini yoritib berilgan, shu bilan birga xalqaro munosabatlar falsafasini anglashga va ayni paytda sobiq ittifoq hududidagi davlatlarda qaror topayotgan siyosiy – iqtisodiy munosabatlar mazmun-mohiyatini ochib berishga asosiy e`tibor qaratilgan.

Xalqaro munosabatlarga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omillar va globallashuv sharoitida davlatlararo munosabatlarni qaror topishi istiqbollarini taxlil qilish masalalari J.Berton, P.Reynolds, P.Neylor, S.Xantington, Z.Bjezinskiy, S.Alford, R.Eyron va boshqalarning tadqiqotlarida o`z aksini topgan<sup>28</sup>. Mazkur tadqiqotlarda sovet tuzumining nuqsonlari, sobiq SSSR tarkibiga kirgan respublikalarning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida namoyon bo`lganmuammolarga e`tibor qaratilgan. Z. Bjezinskiyning “Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегическая императивы” asarida Xitoyning jahondagi siyosiy jarayonlarda tutgan o`rni masalasi jiddiy tahlil etilgan. Uning fikricha, Xitoy mintaqadagi eng kuchli davlat, biroq u jahondagi eng kuchli davlatga aylana olmaydi, bunga uning hududlari iqtisodiy jihatdan notekkis rivojlanganligi va harbiy sohaga doimiy ravishda katta mablag` sariflashi sabab bo`ladi degan fikrni bergan. Shuningdek, u O`zbekiston va Xitoy o`z tashqi siyosatida Rossiya va AQSH ga bo`ysunmagan holda mustaqil faoliyat yuritayotganligi har ikki mamlakat o`rtasidagi samimiy hamkorlikning asosi deb hisoblaydi²⁹.

Bir qator horijlik mualliflar asarlarida mustaqil O`zbekistonning halqaro maydondagi o`zoga xos o`rni va salohiyatini o`rganishga e`tibor qaratilgan. Xususan M.Kaser, S.Mehrota, N.Lubin, P.Goubl, D.Diker, E.Epostulu,

²⁷N.Kohh. The age of Nationalism. – N.Y., 1962; Hoffman S. Contempotrany Theory in International Relations – Prentce – Hall, 1964; Keohane R., Nye J. Transnational relations and World Politics. – Oxford, 1997; Rummel R. Power Kills: Democracy as a Mehod of Nonviolence. – L., 1997. : Нушелер Ф. Новая мировая политика (многополярность вместо мира по-американски)//Internationale Politik. – 1998. - № 11; Fukuyama F. The End of History and the Last Man. – N.Y. – 1992; Хантингтон С. Столкновение цивилизаций //Полис. – 1994. -№ 1.

²⁸Samuel P Huntington The Clash of Civilization? //Foreign Affairs, Summer 1993 –p 22–49; Бжезинский 3. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне XXI века. США; //ЭПИ. –1994– №4, С. 121–122; Унинг ўзи. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегическая императивы. – М.: «Междунар. отношения», 2000; P. Refolds.An Introduction to International Relations, – Z. 1971; P. N'ailor, S.Alford.Future of Britain's Detterent Forse.– Z. 1980 Aron R. Conflict and war from the new point of historical Sociology.– Z. 1994 идр.

²⁹ Бжезинский П.З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегическая императивы. – М.: «Междунарю Отнашения», 2000. – С. 200-201.

B.Reberson tadqiqotlarida ham anashunday ma'lumotlar keltirilgan³⁰. Mazkur asarlarda O'zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy, madaniy aloqalarining asosiy yo'nalishlari, uning jahon hamjamiyati safiga kirib borishi, jahon davlatlari bilan hamkorligi masalalari yoritilgan. M.Olkott, A.Bailes, P.Dunay, S.Blank, N.Swanstrom³¹ Markaziy Osiyo respublikalarining Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari, mintaqadagi integratsion jarayonlarning istiqbollari haqida so'z yuritilgan.

Yuqoridagi asarlarda O'zbekistonning Xitoy bilan ilmiy, madaniy sohalaridagi islohatlariga yetarlicha ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsada, ularda umumiy ma'lumotlar berilgan. Xususan, SH.Akiner, A.Dani, G.Glison, R.Allison va L.Yonson, B.Koppiters, F.Roeder³² kabi olimlar tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy xavsizlik tizimini shakllanish jaroyoni o'rganilgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy o'rin tutishini, ayniqsa, uning xafsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi say-harakatlari mintaq taraqquiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligini, yartilgan qonunchilik ba'zasining hamkorlik aloqalarini rivojlanishiga va O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini alohida takidlaganlar.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi ilmiy – madaniy hamkorlik masalasiga bag'ishlangan mustaqil

³⁰Kaser M., Mehrota S. The Central Economies after Independence. Royal Institute of International Affairs. –L., 1992; Lubin N. Central Asia: Issues and challenges for United States policy. The new geopolitics of Central Asia and its borderlands Ed. By Ali Banuazizi and Myran Weincr. J. B. Touris and Co. Ltd. –L. –N.Y., 1994; Goble P. A the 50 million muslim misunderstanding: The West and Central Asia: Players in the new great game. Ed. By A. Ehtshami, University of Exeter Press, 1994; Dyker D.A. Involvement in prospects of Uzbekistan. // Central Asia Newslife. // Chapter 4, №8, August–September 1996.

³¹Olcott M. Carnegie Endowment for International Peace at Commission on Security and Cooperation Conference in Helsinki, in Maher, Central Asia: US Helsinki Commission concerned about SCO's influence, EURASIA Insight (10/01/06). <http://www.eurasianet.org/departments/insight/articles/pp100106.shtml>, Bailes A. Dunay P., The Shanghai Cooperation Organization as a regional security institution// The Shanghai Cooperation Organisation, Stockholm International Peace Research Institute, Policy Paper No. 17, (May 2007) <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>, Blank S. The Shanghai Cooperative Organisation: Post-Mortem or Prophecy// CEF Quarterly, The Journal of the China-Eurasia Forum (Summer 2005), http://www.chinaeurasia.org/files/CEF_Quarterly_August_2005.pdf, Swanstrom N. The prospects for multilateral conflict prevention and regional cooperation in Central Asia// Central Asian survey. -Oxford, 2004, Vol. 23, №1, P. 41-53; Swanstrom N. China and Central Asia: A new Great Game of traditional vassal relations?// Journal of contemporary China, Abingdon, 2005, Vol. 14, № 45, P. 569-584.

³²Akiner SH. Central Asia: New Arc of Crisis? – London: Institute for Defence Studies, 1993; Gleason G. Federalism and Nationalism: The Struggle for Republican Rights in the USSR. – Boulder: Westview Press, 1990; Dani A. New Light on Central Asia. – Delhi, Renaissance Publications House, 1993.

tadqiqot ishi mavjud emas, shu sababli biz o'z oldimizga ana shu muammoni yoritish vazifasi qo'yildi.

Ushbu vazifalarni bajarishda turli hil manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa O'zbekistondagi Davlat arxivlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari ham muhim ahamiyat kasp etdi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston – Xitoy ilmiy, madaniy aloqalarini yoritishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida M – 2, M – 7 raqamlari bilan saqlanayotgan Fond hujjatlardan samarali foydalanilgan. M – 2 fondida saqlanayotgan hujjatlarda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari Kengashi faoliyatiga oid materiallar saqlanadi. Hujjatlarda “O'zbekiston – Xitoy do'stlik jamiyatining tarixi, O'zbekistonda XXR elchixonasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlar, har ikki mamlakat do'stlik jamiyatlari vakillarining o'zaro tashriflari, ilmiy-madaniy tadbirlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan”. Tadqiqot davomida mazkur hujjatlar o'rganilib, ulardagi XXR bilan ilmiy-madaniy tadbirlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan. Tadqiqot davomida mazkur hujjatlar o'rganilib, ulardagi XXR bilan ilmiy-madaniy sohalaridagi keng qamrovli aloqalar o'rganilib tahlil qilindi va bu ana shu mavzuda ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

Markaziy Davlat arxivining M-7 fondida saqlanayotgan hujjatlarda ikki davlat xalqlarining madaniy aloqalarining bugungi holati, ijodiy guruhlarining o'zaro tashriflari, ilmiy – madaniy sohalaridagi hamkorlikning huquqiy asoslari, kino, musiqa, san'ati sohasidagi hamkorlik aloqalari aloqalari to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Arxiv hujjatlari ichida “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasi arxivida saqlanayotgan materiallar ham muhim o'rin egallaydi. Har ikki davlat o'rtasida sayyohlar almashish, turizm sohasidagi hamkorlikka oid ishlarning holatini yoritish imkonini beradi. Ayniqsa, Xitoyda turizmning rivojlanishi, turizm infratuzilmasini shakllanishi, turizmning rivojlanish istiqbollari, O'zbekiston va Xitoyning turizm sohasidagi hamkorligi kabi masalalarga oid hujjatlar to'plangan va tahlil qilingan.

O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi ilmiy-texnikoviy aloqalariga oid hujjatlarni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasidan olingan materiallar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonni Xitoy Xalq Respublikasi bilan ilmi-madaniy va boshqa bir qator sohalarda hamkorlik qilishi, O'zbekiston uchun ham Xitoy hukumati uchun ham samarali natijalar bermoqda. Ikki davlat ilmiy tadqiqot institutlarini bir-biri bilan bog'lovchi dissertatsiyalarni yozilishi ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni samarali rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda.

I.2. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi hamkorlikning tarixiy ildizlari.

Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar uzoq tarix va mustahkam asoslarga ega. Xitoy-O'zbekiston aloqalari o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan keyin davlatlarimiz rahbarlarining ulkan e'tibori va tashabbuslari samarasida barqaror rivojlanmoqda. Turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlik mamlakatlarimizning barqarorlik va taraqqiyotga erishish borasidagi manfaatlariga to'la mosdir. Birinchi prezident I.A.Karimov takidlaganidek: "Mustaqil O'zbekistonning – qudrati kuch manbai, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda"³³.

Yillar davomida to'plangan tajriba shuni ko'rsatadiki, Xitoy-O'zbekiston munosabatlarining barqaror rivojlanishi nafaqat ikki mamlakat xalqlarining tub manfaati va umumiy xohishiga mos, balki mintaqada tinchlik va barqarorlikni

³³Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B. 56.

saqlashga ham xizmat qilmoqda. O'zaro aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantirish va mamlakatlarimiz o'rtasidagi barcha sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, do'stona aloqalarni jadal davom ettirish bugungi kungacha muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bunday do'stona aloqalar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qadimdan rivojlanib kelgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning so'ngi yuz yilligidan boshlab Markaziy Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi madaniy aloqalar doimiy tus olgan.

Mustaqillik O'zbekiston xalqiga ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi, mamlakatimiz siyosiy mutelik va qaramlik kabi asoratlardan xalos bo'ldi, jahon hamjamiyatiga teng ququqli a'zo sifatida kirib bordi. O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Xalqimiz o'zining insonparvarlik, bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlariga aylangan holda jahon hamjamiyati safiga dadil kirib bordi. Birinchi prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Mustaqil O'zbekistonning - qudrati kuch manbai, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab - asrab kelmoqda"³⁴.

O'zbek xalqi azal-azaldan jahon mamlakatlari xalqlari bilan yaqindan aloqa qilib kelgan. O'zbekistonning bugungi tashqi siyosati xalqimizning xalqaro hamkorlik sohasidagi boy tajribasi va an'analariga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligining zamonaviy manbalarini chuqurroq o'rganish uchun tarixga murojaat qilish zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning ko'plab mamlakatlari bilan do'stona aloqalar o'rnatib samarali hamkorlik qilmoqda. Ana shu mamlakatlarning aksariyati bilan mamlakatimiz qadimdan do'stona aloqalarga ega bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li o'tmishda mintaqadagi ko'plab xalqlarni yaqindan hamkorlik qilishlarining asosiy vositasi bo'lgan. Xitoy o'zbek xalqining ana shunday qadimiy hamkorlaridan biridir.

O'zbekiston – Xitoy munosabatlari yillar sinovidan o'tgan, ko'p ming yillik o'zaro manfaatli aloqalarning uzviy davomidir. Bunday do'stona aloqalar

³⁴ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1999. - B. 56.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qadimdan rivojlanib kelgan. Mil. avv. I ming yillikning so'ngi yuz yilligidan boshlab Markaziy Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy-madaniy aloqalar doimiy tus olgan. Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo va diplomatik aloqalar mil. avv. II asr o'rtalarida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan geosiyosiy vaziyat ta'sirida shakllana boshlagan³⁵. Xitoyning "g'arbiy o'lkalar" ga bo'lgan qiziqishining ortib borishi natijasida mil. avv. 140 yilda CHjan Tszyan elchi sifatida jo'natilgan. CHjan Tszyan O'rta Osiyodagi Usunlar yurti, Davan va Qang' davlatlari, Katta Yuechji, Daxya (Baqtriya), Ansi (Parfiya) kabi o'lkalar, savdo yo'llari haqida muhim ma'lumotlarni to'plagan³⁶. Mazkur ma'lumotlar "Tarixiy xotiralar" ("Shi ji") nomli asarning "Chjan Tszyanning tarjimai holi" va "Farg'ona tazkirasi" nomli boblarida ilk bor uchraydi³⁷.

Manbalarining guvohlik berishicha mil. avv. 121 yildan boshlab Xitoy imperatorlari Davan, Baqtriya, Parfiya o'lkalariga yiliga besh-olti, ba'zi yillarda o'n martadan ko'proq elchiliklar jo'natganlar. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalarda Davan davlati muhim o'rin tutgan. Farg'ona vodiysi xitoyliklar uchun bir tomondan harbiy o'lkalarga o'tadigan darvoza vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi tarafdan o'z harbiy qo'shinini Farg'onaning afsonaviy samoviy otlari bilan to'ldirish Xitoyning strategik harbiy-siyosiy maqsadlaridan biri bo'lgan³⁸.

Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari o'rtasidagi aloqalar Kushonlar saltanati davrida ham davom etgan. Bu aloqalarning rivojlanishida Kushon saltanatida davlat diniga aylangan va Xitoy hududiga ham kirib borgan buddaviylik muhim o'rin tutgan. Xitoy manbalarida 230 yilda Vey sulolasi saroyiga Kushon hukmdori Vasudevaning elchilari kelganligi haqida ma'lumot berilgan³⁹.

³⁵ Mavlonov U. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. - T.: Akademiya, 2008. - B. 111.

³⁶ Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. - Т.: Фан, 2007. - С 26.

³⁷ Хо'jaev A. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. - B.146.

³⁸ Боровкова Л. А. Запад Центральной Азии во II в. до н. э. - VIII в. н. э. - М.: Наука, 1989.- С. 19.

³⁹ Мирзаев Р. Геополитика нового Шелкового пути. - М.: Известия, 2004.- С.76

Ilk o'rta asrlarda ham Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalar davom etgan. At-Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l-muluk va-l-xulafa", Al-Utbiy va Ibn al-Asirning asarlarida Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalar yoritilgan⁴⁰. Xitoy Eron va Vizantiyaga o'tuvchi asosiy savdo yo'llarini o'z nazoratiga olgan qudratli Eftaliylar davlati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga alohida e'tibor qaratgan. Shimoliy Vey sulolasi hukmdorlari O'rta Osiyoga 3 ta elchilik missiyasini jo'natganlar. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, 713 yilda Samarqanddan sovut, kulolchilik buyumlari, tuyaqush tuxumi, pakana odamlar va raqqoslar yuborilgan. Toxaristondan VII-VIII asrlarda ajoyib otlar, 200 dan ortiq turdagi dorivor g'iyohlar, shisha va tog' billuridan yasalgan buyumlar olib borilgan. Chochdan "Eron usulida" tayyorlangan musallas olib borilgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyodagi yodgorliklardan bronza oynalar va boshqa Xitoyda ishlab chiqarilgan buyumlarni uchratish mumkin⁴¹.

Xitoydan Markaziy Osiyoga asosan ipak matolar olib kelingan bo'lsa, Xitoyga paxta va jundan tayyorlangan matolar yuborilgan. Misol uchun 682 yilda Toxariston elchisi Xitoy imperatoriga oltin parcha kiyim sovg'a qilgan. 726 yilda Buxoro hukmdori boshqa sovg'alar qatorida Vizantiya gilamini ham jo'natgan⁴².

Ilk o'rta asrlarda so'g'diylar Buyuk Ipak yo'lida etakchilikni qo'lga kiritganlar. Ular Xitoy bilan madaniy aloqalarni rivojlantirishda katta rol o'ynadilar. Ular butun yo'l bo'ylab turli yozuv tizimlarining yoyilishiga katta hissa qo'shdilar. Xitoy musiqa va raqs madaniyatida yangi unsurlarni, g'ijjak, chang, nay singari musiqa asboblarning kirib borishiga Markaziy Osiyo musiqa san'ati ta'sir ko'rsatgan. Buxoro, Samarqand va Choch raqqosalari va musiqachilari VII-VIII asrlarda Xitoyda juda mashhur bo'lishgan⁴³.

⁴⁰Ахмедов Б. А. Роль Центральноазиатских источников в изучении торговых, политических и культурных связей Средней Азии с Китаем в средние века.// Новое в изучении Китая. – М.: Наука, 1988. – С. 143-144.

⁴¹Савчук-Курбанов С. Китай – Узбекистан: многовековые истоки торгово-экономического и культурно-просветительского партнерства. // Материалы научно-практической конференции «Китай и современный мир». Ташкент, 29 сентября 2009 г. – С.11.

⁴²Мирзаев Р. Геополитика нового Шелкового пути. – М.: Известия, 2004.– С.78

⁴³Савчук-Курбанов С. Китай – Узбекистан: многовековые истоки торгово-экономического и культурно-просветительского партнерства. // Материалы научно-практической конференции «Китай и современный мир». Ташкент, 29 сентября 2009 г.– С.12

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, o'sha davrda Xitoy musiqasi o'z ohangiga ko'ra Markaziy Osiyo musiqasiga o'xshab ketgan. Tan davri Xitoy manbalarida "xutenu" deb nomlangan Toshkent raqsi haqida ma'lumotlar berilgan.

Arab istilochilariga qarshi kurash davrida Xitoy bilan diplomatik munosabatlarda jonlanish yuz bergan. Markaziy Osiyo davlatlari arablarga qarshi kurashda Xitoy bilan ittifoq tuzishga intilganlar. 717 yildan 731 yilgacha Xitoyga So'g'diyonadan 11 ta, Toxaristondan 5 ta, Buxorodan 12 ta elchilik jo'natilga⁴⁴. Tan davlati arablarga qarshi 30 ming kishilik (arab manbalarida 50 ming kishilik) qo'shin yuborgan. 751 yilda Talas daryosi bo'yida, hozirgi Jambul shahri yaqinida bo'lib o'tgan jangda xitoyliklar qaqshatqich mag'lubiyatga uchraydilar⁴⁵. Bu jangda 50 ming Xitoy askari qurbon bo'lgan, 20 ming kishi asirga tushgan⁴⁶. Bu mag'lubiyat nafaqat Tan imperiyasining xalqaro obro'siga, balki uning siyosiy, iqtisodiy hayotiga ham salbiy ta'sir o'tkazgan.

Movorounnahrda Amir Temur davlatining vujudga kelishi o'zaro diplomatik munosabatlar taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. 1387 - 1397 yillar oralig'ida Amir Temur Xitoyga olti marotaba elchilik jo'natgan. 1387 yilda mavlono Hofiz boshchilik qilgan birinchi elchilik orqali imperatorga 800 ta ot sovg'a qilingan. 1394 yilda Amir Temur Xitoyga yangi elchisini yuborgan, u sovg'a sifatida 200 ta ot va sohibqiron maktubini etkazgan, bu maktub ilk bor xitoychaga o'girilgan. Shuningdek, Amir Temur Xitoyga 1388 yilda Toj ad-Din, 1391 yilda Shoxalil, 1392 yilda Nig'mat ad-Din, 1394 -1396 yillarda Darvish Ali, 1396 yilda Alomat ad-Din boshchiligida elchiliklar jo'natgan. O'z navbatida Xitoydagi Min sulolasi hukmdorlari ham Amir Temur huzuriga o'z elchilarini jo'natganlar. Jumladan, 1395 yilda imperator Xunu Samarqandga Fu Anni elchi

⁴⁴ Mavlonov U. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. - T.: Akademiya, 2008. - B. 125.

⁴⁵ Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2007. – С.28.

⁴⁶ История Табари. – Т.: Фан, 1987. – С. 348.

sifatida yuborgan. U Amir Temurga imperatorning maktubini va sovg'alarini topshirgan⁴⁷.

Amir Temurning vorislari ham sohibqiron amalga oshirgan siyosatga amal qilib, uni davom ettirganlar. Shohrux Mirzo hukmronligi yillarida temuriylar davlati va Xitoy o'rtasidagi aloqalar yana davom ettirildi. 1409 va 1420 yillarda Hirotga Xitoy elchilari kelgan⁴⁸, o'z navbatida bunga javob tariqasida Xitoyga bir necha bor temuriy hukmdorlarning elchiliklari jo'natilgan. Jumladan, 1419 -1422 yillarda Shohruh Mirzo Xitoyga Shodixoja hamda Ko'kcha, G'iyosiddin Naqqqosh va Sulton Ahmad boshchiligida elchilik missiyasini yuborgan⁴⁹.

XIX asrda g'arbiy Xitoydan Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklariga choy, ipak matolar, chinni, gilamlar, chorvachilik mahsulotlari olib kelingan. Xitoyga esa parcha, duxoba, oltin, mo'yna, ishlov berilgan teri, qimmatbaho toshlar va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilgandan keyin temir, cho'yan, mis va boshqa metall buyumlar, ayollar taqinchoqlari, oyna, idishlar, movut, paxta matolar, gugurt, shakar kabi mahsulotlar ham jo'natila boshlangan⁵⁰.

XX asr boshlariga kelib o'zaro savdo aloqalari yanada rivojlangan. 1910 yilda Turkiston orqali Xitoyga besh million so'm hajmida tovar olib o'tilgan, Xitoydan esa sakkiz million so'mdan ortiqroq miqdordagi mahsulot olib kelingan⁵¹.

Birinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosida vujudga kelgan yangi vaziyat tufayli Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari ham qisqargan. Markaziy Osiyodagi ocharchilik o'zaro savdo strukturasini ham o'zgartirib yuborgan. Oziq-ovqat mahsulotlari va chorva mollariga bo'lgan talab

⁴⁷Каримова Н. А. Взаимоотношения народов Центральной Азии и Китая в XIV – XVII вв. –Т.: Изд-во ТашГИБ, 2005. –С. 106.

⁴⁸ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayin. Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar A. O'rinboevniki. - T.: Fan. 1969. - B. 124; Fasix Axmad ibn Djalal ad-Din Muhammad al-Xavafi. Mudjmal-i Fasixi (Fasixov svod) / Per., predisl., primech. i ukaz. D.Yu. Yusupovoy. - Tashkent: Fan, 1980. - S. 166.

⁴⁹ Fasix Axmad al-Xavafi. Mudjmal-i Fasixi. - T.:Fan, 1980. - S. 144, 178-179.

⁵⁰Мирзаев Р. Геополитика нового Шелкового пути. – М.: Известия, 2004.– С.100

⁵¹Мирзаев Р. Геополитика нового Шелкового пути....–С.100

yanada oshgan. Agar 1915 - 1916 yillarda Shinjondan Markaziy Osiyoga 10 - 20 ming bosh qo'y, 500 - 2000 bosh qoramol va 200 - 500 bosh yilqi haydab o'tilgan bo'lsa, 1917 yilda 120 ming bosh qo'y, 1200 bosh qoramol va 3 ming bosh yilqi haydab o'tilgan⁵².

Sobiq SSSR davrida O'zbekiston boshqa ittifoqchi respublikalar kabi rasman suveren respublika sifatida xalqaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish ququqiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ququq deklarativ xususiyatga ega bo'lib, faqat qog'ozdagina mavjud edi. Amalda esa O'zbekistonga mustaqil ravishda tashqi aloqalar o'rnatish huquqi berilmagan edi, mamlakatimiz totalitar sovet davlatining qat'iy doirasida bo'lgani holda xalqaro maydonga bevosita chiqish imkoniga, o'zining tashqi siyosiy institutlariga ega emas edi.

O'zbekiston SSSR tashqi siyosiy faoliyat organlarining ruxsati bilangina SSSR va Xitoy o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi hamkorlikda epizodik ravishda ishtirok etishga majbur bo'ldi.

1950 yil 14 fevralda SSSR va XXR o'rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasining "qo'shimcha bitimi"da "Markaziy Osiyoning ittifoqdosh respublikalari hududida, shuningdek Xitoy Manchjuriyasi va Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni chegaralarida chet elliklar mulklarni ijaraga olish huquqidan mahrum etildilar, uchinchi mamlakatlar tomonidan mablag' kiritish va chet el fuqarolarining sanoat, moliya va savdo tizimida, boshqa korxona, muassasa, kompaniya va tashkilotlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlandi"⁵³. Bu holat O'zbekistonning o'zaro manfaatli tashqi aloqalarining yanada cheklanishiga olib keldi.

1950-yildan O'zbekiston Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoniga kadrlar tayyorlash, mahalliy aholini uyg'ur, qozoq tillaridagi adabiyot va o'quv kitoblari bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish, er osti boyliklarini aniqlash, irrigatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha katta yordam ko'rsadi⁵⁴.

⁵²Мирзаев Р. Геополитика нового Шелкового пути....– С.100.

⁵³Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2007. – С.51.

⁵⁴Qarang: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 9 jild. - B. 437.

XX asrning 60 – 70yillarda SSSR va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik vujudga keldi. CHegaradagi muammolar hamda sovet va xitoy kommunistlari o'rtasidagi g'oyaviy kelishmovchiliklar o'zaro munosabatlarning yomonlashishiga olib keldi. Natijada, O'zbekiston asrlar davomida asosiy hamkori bo'lib kelgan davlat bilan hamkorlik qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldi.

O'zbekiston 1962-yilda Bolgariyaga 6937,83 ming so'mlik, Vengriyaga 38528,84 ming, Polshaga 33650,00 ming, Ruminiyaga 21808,53 ming, Vetnam Demokratik Respublikasiga 521,91 ming, Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga 610,10 ming, Koreya Xalq Demokratik Respublikasiga 6720, 20 ming so'mlik mahsulot etkazib bergan bo'lsa Xitoyga etkazib berilgan mahsulot atigi 339,20 ming so'mni tashkil etgan⁵⁵.

XX asr 80 - yillari boshlariga kelib SSSR va XRR munosabatlari asta-sekin yaxshilana boshladi. Har ikki davlatda yuz bergan qayta qurish jarayonlari, umuman o'zaro muloqotlarni tiklashga bo'lgan harakat natijasida an'anaviy aloqalar yana o'z joyiga tusha boshladi.

1986 yildan boshlab Markaziy Osiyo respublikalari, Qozog'iston va XRRning Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni o'rtasida savdo aloqalari amalga oshirila boshlandi⁵⁶. O'zbekiston va Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni bilan paxta etishtirishni yanada takomillashtirish va uni turli kasalliklardan asrash, yangi navlarni yaratish sohasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda Xitoy mahsulotlarining ko'rgazmalari o'tkazila boshlandi. Toshkent shahrida 1988 yil may oyida o'tkazilgan Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni korxonalarining mahsulotlari ko'rgazmasida Xitoyga karbonit va amofor etkazib berishga, o'z navbatida Xitoydan O'zbekistonga shinalar va to'qimachilik mahsulotlari etkazib berishga kelishib olindi⁵⁷.

⁵⁵ Abutalipov CH.A. O'zbekistonning halqaro aloqalari. -T.: O'zdamnashr,1964. - B. 69.

⁵⁶Славинский Б. Н. Внешняя политика СССР на Дальнем Востоке, 1945-1986 . – М.: Международные отношения, 1988. – С.244.

⁵⁷ O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyatining faoliyati to'g'risida hisobot. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zR MDA) M.2- fond, 1- ruyxat; 101- ish, 12-varaq.

1989 yil 17 martda Toshkentda birinchi sovet-xitoy qo'shma korxonasi vujudga keltirildi. Shu kuni XXR Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni markazi Urumchidan kelgan sanoat uyushmalari va O'zbekiston mahalliy sanoat ministrligi vakillari Toshkentda ro'zg'or termoslari korxonasini bunyod etish haqidagi bitimga imzo chekdilar⁵⁸.

1990 yil yanvarida "Tashinterm" o'zbek-xitoy qo'shma korxonasi termoslarning birinchi partiyasini chiqardi⁵⁹.

O'zbekistonning Xitoy bilan aloqalarida "O'zbekiston – Xitoy" do'stlik jamiyati ham alohida o'rin tutgan. U 1958 yil 30 oktyabrda Sovet-Xitoy do'stlik jamiyatining bo'limi sifatida tashkil etilgan. 1987 yilda bo'lim O'zbekiston - Xitoy do'stlik jamiyati deb qayta nomlandi⁶⁰. SSSR va XXR o'rtasidagi g'oyaviy ziddiyatlar sharoitida jamiyat faoliyati juda cheklangan edi. 80-yillar o'rtalariga kelibgina, jamiyat faol aloqalarni yo'lga qo'ya boshladi. 1985 yildan 1995 yilgacha Xitoydan 19 ta delegatsiya qabul qilingan, o'z navbatida Xitoyga 12 delegatsiya jo'natilgan⁶¹. Mazkur delegatsiyalar ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga intilganlar. 1980 yilda sovet-xitoy siyosiy maslahatlashuvlari jarayonida XXR hukumatining maxsus vakili, tashqi ishlar vazirining o'rinbosari Tsyen Tsichen va XXR ning SSSR dagi elchisi Yan Shouchjen O'zbekistonga tashrif buyurib, yurtimiz hayoti bilan tanishganlar⁶².

O'zbekiston XXR bilan iqtisodiy aloqalarni ham o'rnatishga intila boshladi. 1981 yil dekabrda va 1983 yil yanvarida Toshkentga Xitoy Fuqaro Aviatsiyasi boshqarmasining texnik komissiyasi kapital ta'mirdan chiqarilgan Il-62 samolyotlarini qabul qilish uchun tashrif buyurdi. Ushbu delegatsiya vakillari "O'zbekiston – Xitoy" do'stlik jamiyatida qabul qilindi⁶³.

⁵⁸ Mannonov B. S., Maksimov T. Qayta qurish va O'zbekistonning tashqi aloqalari. -T.: Bilim jamiyati, 1991. 8-bet.

⁵⁹ Тюриков В. И. Первый...Первая...Впервые... -Т.: Ўзбекистон, 1996. – С.101.

⁶⁰ O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyatining faoliyati to'g'risida hisobot. O'zR MDA, M.2- fond, 1- ruyxat; 101- ish, 6 - varaq

⁶¹ O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyatining faoliyati to'g'risida hisobot. O'zR MDA, M.2- fond, 1- ruyxat; 101- ish, 6 - varaq.

⁶² O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyatining faoliyati to'g'risida hisobot. O'zR MDA, M.2- fond, 1- ruyxat; 101- ish, 6 - varaq

⁶³ O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyatining faoliyati to'g'risida hisobot. O'zR MDA, M.2- fond, 1- ruyxat; 101- ish, 7 - varaq

Mustabid tuzumning cheklovlariga, zo'rliklariga qaramasdan, SSSR tarkibiga kirgan xalqlar xorijiy davlatlar xalqlari bilan hamkorlik aloqalarini saqlab qolishga uringanlar. Lekin, bu hamkorlik xalqaro me'yorlar talablari darajasidagi davlatlararo munosabatlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojni qondira olmas edi. Sovet tuzumi davrida mamlakatlarimiz xalqlari vakillari qanchalik intilmasinlar, qanchalik harakat qilmasinlar, O'zbekiston - Xitoy hamkorligi cheklanganligicha qolib ketavergan edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingina ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan o'zbek va xitoy xalqlari o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik aloqalarini tiklash, umuman, ko'p tomonlama faol tashqi siyosat yuritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shu tariqa, O'zbekiston va Xitoy xalqlari insonparvarlik, bag'rikenglik, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik g'oyalariga sodiq qolgan holda ko'p asrlar davomida davlatlararo munosabatlarni samarali rivojlantirib keldilar, o'zaro munosabatlarni mustahkamlash masalalarida qarashlar va yondashuvlar birligini hozirgi kundagi murakkab sharoitlarga o'tkazishga muvaffaq bo'ldilar.

II.Bob O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari va fan-texnika sohalaridagi hamkorlik.

II.1. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari va tamoyillari.

Xitoy O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan dastlabki davlatlardan biri hisoblanadi. Xitoy 1991 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan. 1992 yil 2 yanvarda XXR tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik vaziri Li Lyantsinning O'zbekistonga tashrifi davomida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatish to'g'risida Bayonnoma imzolangan.

1992 yil 12-14 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasi raisi Yan Shankunning taklifiga binoan Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyurdi⁶⁴. Tashrif davomida XXR va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi yigirmaga yaqin muhim hujjatlar imzolangan.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tamoyillari to'g'risidagi shartnoma, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bitim, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi tashqi

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni nashri. Xabarnoma. 1993, № 5. - B. 86 - 88.

ishlar vazirliklari o'rtasida konsultatsiyalar o'tkazish to'g'risidagi Bayonnomalar o'zaro hamkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi⁶⁵.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimovning 1994 yil 24-26 oktyabr kunlari Xitoyga tashrifi⁶⁶ davomida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy printsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Bayonnoma⁶⁷ o'zaro munosabatlar tarixidagi yangi sahifani ochib berdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I. A. Karimovning 1999 yil 8-10 noyabr' kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrifi davomida imzolangan XXR va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ekstraditsiya to'g'risidagi va telekommunikatsiya sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti va Xitoy diplomatiya universiteti o'rtasida, "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi va Xitoyning turizm bo'yicha davlat boshqarmasi, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi va Xitoy jamoatchilik xavfsizligi vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida hujjatlar hamda O'zbekiston XXR o'rtasidagi do'stona hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qo'shma bayonot muhim ahamiyatga ega bo'ldi⁶⁸.

Tadqiqotda ikki mamlakat savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyaning tutgan muhim o'рни haqida dalillar keltirilgan, ijobiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Mazkur komissiya 1995 yildan boshlab doimiy ravishda o'z yig'ilishlarini o'tkazib kelmokda va ularda savdo investitsiyaviy faoliyat, qo'shma korxonalar tuzish, sanoat korxonalarini ilg'or xorijiy texnologiyalar bilan ta'minlash sohalaridagi

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni nashri. Xabarnoma. 1993, № 5. - B. 86-92.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri. Xabarnoma. 1995, №16. - B. 91.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri. Xabarnoma. 1995, №16. - B. 92-93.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni nashri. Xabarnoma. 1999, № 5. - B. 76-78.

hamkorlik shakllari va usullarini yanada takomillashtirish masalalari keng muhokama qilinmoqda⁶⁹.

O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi qoshida bir qator yirik Xitoy kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Xunan provintsial eksport-import korporatsiyasi, choy importi va eksporti bo'yicha Anxoy korporatsiyasi, Shinjon Tashqi iqtisodiy va savdo kompaniyasi, don, yog' va oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksport qilish Xitoy kompaniyasi, "Teksuna Interneyshnl Limited" kompaniyasi, "Xuavey Texnologjis kompani, LTD" kompaniyasi, "Chaynateks" kompaniyasi, Xitoy geoinjeneriya korporatsiyasi kabilar shular jumlasidandir⁷⁰.

Dissertatsiyada O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan savdo aloqalarining rivojlanish dinamikasi talil qilingan. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1993 yilda 71,9 million AQSH dollarini tashkil etgan. O'zbekistondan Xitoy Xalq Respublikasiga umumiy qiymati 36,6 mln. AQSH dollari bo'lgan mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, Xitoydan O'zbekistonga import 35,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. O'zaro savdo aylanmasidagi ijobiy savdo 1,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan. 1994 yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi, deyarli ikki baravarga oshgan va 165 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Jumladan, eksport 76,9 mln. AQSH dollarini, import esa 88,1 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. O'zaro savdo aylanmasida 11,2 mln. AQSH dollari miqdorida salbiy savdo qayd etilgan⁷¹.

Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari keyingi yillarda ham rivojlanib bordi va 1995 - 1996 yillarda o'zaro savdo aylanmasi 218,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi⁷².

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi joriy arxivi (O'zR TIAISV JA) - O'zbekistonning XXR bilan savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risida axborot. 2- varaq.

⁷⁰ O'zR TIAISV JA - O'zbekistonning XXR bilan savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risida axborot. 2 -varaq.

⁷¹ O'zR TIAISV JA - O'zbekistonning XXR bilan savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risida axborot. 4 -varaq.

⁷² O'zR TIAISV JA - O'zbekistonning XXR bilan savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risida axborot. 4 -varaq.

O'zbekiston va XXR o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasi 1997 yilda 168,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Jumladan, eksport 86,4 mln., import esa 81,8 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. 1998 - 2000 yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasida ma'lum darajada pasayish kuzatildi.

O'zaro savdo aylanmasi 1998 yilda 86 mln., 1999 yilda 80,3 mln., 2000 yilda 95,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, O'zbekiston Xitoyga asosan ipak, mineral o'g'itlar, xizmatlar, noorganik kimyo mahsulotlari, ruda, sabzavotlar, paxta tolasi, jun, chorva mahsulotlarini eksport qilgan bo'lsa, Xitoydan kofe, choy, ziravorlar, to'qimachilik mahsulotlari, plastmassa, mexanik va elektr jihozlar, chorva mahsulotlari, poyafzal, sun'iy tola, maxsus kiyimlar, tamaki kabi mahsulotlarni sotib olgan⁷³.

Mamlakat iqtisodiyotining bozor infratuzilmasi shakllanishi muhimligini ta'kidlagan holda, iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich bosqichida O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A. Karimov shunday muhim fikrni bildirgan edi: "Eksport tarkibida chuqur o'zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Xom ashyoni eksport qilishdan ko'ra, O'zbekiston uchun ko'proq naf keltiradigan yo'nalishlarga o'tish zarur. Bular jumlasiga engil sanoatning, qayta ishlash sohalarining, mashinasozlikning ilm-fanga asoslangan tarmoqlari tayyor mahsulotlarini chet ellarga sotish, chet el turizmini rivojlantirish kiradi"⁷⁴.

Shu munosabat bilan keyingi yillarda respublika iqtisodiyotiga xorijiy texnologiyalarni jalb etish, eng yangi texnologiyalarni qo'llagan holda kompleks, harakatchan zamonaviy ishlab chikarishni bunyod etish borasida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bu esa ilg'or xorijiy firmalar va kompaniyalar bilan yaqin sheriklik aloqalarini o'rnatishni taqozo etar edi.

Shuningdek, tadqiqotda O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biri – qo'shma korxonalar hamda xorijiy sarmoyalarni jalb etish evaziga korxonalar tashkil etish sohasidagi

⁷³ O'zR TIASIV JA. Kredit kelishuvlarining bajarilishi to'g'risida ma'lumot. 8 -varaql.

⁷⁴ Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - B. 10 - 11.

hamkorligi yuzasidan ma'lumotlar berilgan. O'zbekistonda mustaqillik yilarida Birinchi prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, raqbatlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi"⁷⁵. Shuning uchun ham xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalarining tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda 1992-2000 yillar oralig'ida 20 ga yaqin o'zbek-xitoy qo'shma korxonalari barpo etilgan bo'lsa, 2000 yil oxiriga kelib xitoylik investorlar ishtirokidagi 49 korxona tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich 2001 yilda - 67, 2002 yilda - 70, 2003 yilda - 79, 2004 yilda - 96, 2005 yilda - 107 tani tashkil etgan⁷⁶.

Qo'shma korxonalar asosan chakana va ulgurji savdo, vositachilik xizmati, engil sanoat mahsulotlari, radioelektron texnika va jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, maishiy xizmatlar ko'rsatish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar. Jumladan, 1995 yilda ustav fondi 510 ming AQSH dollari bo'lgan "Suvjig'ozgaz" qo'shma korxonasi tashkil etildi⁷⁷. Gaz hisoblagichlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mazkur korxona 2005 yilga kelib 1.5 million dona gaz hisoblagichlar ishlab chiqardi va o'rnatdi. Bugungi kunga kelib qo'shma korxonaning yillik aylanmasi 10 mln. dollarga etdi⁷⁸.

"Suvjig'ozgaz" qo'shma korxonasining faoliyati natijasida katta miqdordagi valyuta mablag'larini tejashga, hamda gaz yoqilg'isidan samarali foydalanishga erishildi.

Andijon viloyatida 1997 yilda tashkil etilgan "Rivoj-Tyanjin" qo'shma korxonasi ham samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ustav fondi 1 mln. dollarni

⁷⁵ Karimov I. A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. - B. 42.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi hamda Xitoy Xalq Respublikasi sarmoyalari ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot. 2 -varaq.

⁷⁷ "Suvjig'ozgaz" QK: Tabiiy resurslarni asrashda ishonchli sherik. // Xalq so'zi, 1996 yil 2 oktyabr.

⁷⁸ O'zR TIAISV JA -O'zbekiston Respublikasi hududida Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyati to'g'risida axborot. - 5-varaq.

tashkil etgan mazkur korxona respublika xo'jaligi uchun zarur bo'lgan payvandlash uskunalari va elektrodlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan⁷⁹. Korxonaning shahobchalarida tola o'rash uchun konuslar, o'n xil nomdagi mineral suvlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qo'shma korxona aholini ish bilan ta'minlash masalasiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Tashkil etilgan davrda qo'shma korxonada 10 kishi ishlagan bo'lsa, 2005 yilga kelib ularning soni 400 nafardan oshib ketdi⁸⁰.

O'zbekiston tashqi savdosi infrastrukturasi rivojlantirish, Xitoy va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari bozorlariga eksport hajmini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 6 noyabrdagi qaroriga binoan Xitoy Xalq Respublikasining Shanxay shahrida "O'zbekiston yarmarkasi" qo'shma korxonasi tashkil etildi⁸¹.

"O'zbekiston yarmarkasi" qo'shma korxonasi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilib, nizom fondi 500 ming AQSH dollaridan iborat bo'ldi, bunda O'zbekistonning hissasi 51 foizni, Xitoy Xalq Respublikasi tomonining hissasi 49 foizni tashkil etdi. O'zbekiston tomondan respublika tovar-xomashyo birjasi, "O'zbek ipagi" assotsiatsiyasi, "O'zavtosanoat" assotsiatsiyasi, "O'zximsanoat" assotsiatsiyasi, "Algoritm" hissadorlik jamiyati, "qurilish material sanoat butlash" hissadorlik jamiyatlari, Xitoy tomondan esa "Shenli grupp" kompaniyasi qo'shma korxonaning ta'sischilari bo'lishdi⁸². qo'shma korxona Xitoyda va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yarmarka va ko'rgazmalarini o'tkazish, Xitoy kompaniyalari bilan shartnomalar tuzishga ko'maklashish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish kabi vazifalarni bajaradi.

O'zbekistonning xorijiy davlatlar, shu jumladan, Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik ko'rgazmalarni tashkil etish muhim

⁷⁹ Ne'matov SH. Rivoj topaver. // Ishonch. - 1999 yil 24 iyul.

⁸⁰ O'zR TIAISV JA –O'zbekiston Respublikasi hududida Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyati to'g'risida axborot. 1-varaq.

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi TIAISV JA. O'zbekiston Xitoy aloqalari to'g'risidagi axborot-ma'lumotnoma tusidagi materiallar. 18 -varaq.

⁸² O'zbekiston Respublikasi TIAISV JA. O'zbekiston Xitoy aloqalari to'g'risidagi axborot-ma'lumotnoma tusidagi materiallar. 18-19 - varaqlar.

ahamiyatga ega. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning. Ko'p yillik tajribasiga asoslangan holda ta'kidlash mumkinki, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik ko'rgazmalarni tashkil etish va o'tkazish ishbilarmon doiralar vakillari o'rtasida aloqalarning noan'anaviyshakllari o'rnatilishi va rivojlanishiga yordam beradi.

1992 yil aprelda Samar'andda "Inter Aziya – 92" Xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi, unda Afg'oniston, Koreya, Xitoy, Yaponiya, MDH respublikalarining 30 ga yaqin davlat, qo'shma va xususiy korxona hamda firmalari o'z mahsulotlarini namoyish qildilar⁸³.

Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda XXR viloyatlari tovarlarining ko'rgazmalari alohida o'rin tutadi. Jumladan, 1992 yil may va iyul oylarida Toshkentda Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida o'tkazilgan Xeyluntszyan provintsiyasining tovarlari va Xitoyning xalq iste'moli tovarlari ko'rgazmasi savdo-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Ko'rgazmada Xitoyning 15 viloyatidagi 60 dan ortiq firmalar va kompaniyalar tomonidan tayyorlangan o'n mingdan ko'proq nomdagi tovarlar namoyish qilindi⁸⁴.

O'zbekistonda nafaqat Xitoy mahsulotlari, balki yuksak texnologiyalari ham namoyish etilgan. 1993 yil mayida Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi hududida "Politexnologji" kompaniyasi tomonidan Xitoy mahsulotlarining ko'rgazmasi o'tkazildi. 1994 yil 5-7 iyul kunlari "O'zekspomarkaz"da XXR Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni mahsulotlarining ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. 1997 yil sentyabrida Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonini Urumchi shahrida o'tkazilgan 6-Xalqaro savdo-Iqtisodiy yarmarkasida O'zbekiston ilk bor o'zining intellektual mahsulotlari - yangi texnologiyalar, injiniring va nou-xaulari bilan ishtirok etdi . Yarmarkada 14 mamlakatdan mingdan ortiq firma va kompaniyalar o'qz ko'rgazmalari bilan ishtirok etdilar⁸⁵.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi TIAISV JA. O'zbekiston Xitoy aloqalari to'g'risida ma'lumot. 11 - varaq.

⁸⁴ Tyurikov V., SHog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: "100 savolga 100 javob". 2-kitob. - Toshkent: O'qituvchi, 2001. - B. 145.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi TIAISV JA. O'zbekiston Xitoy aloqalari to'g'risida ma'lumot. 11 - varaq.

Iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va rivojlanishida savdo-iqtisodiy ko'rgazmalarning o'tkazilishi muhim rol o'ynadi. Shunday tadbirlarning o'tkazilishi natijasida bir tomondan ikki mamlakat savdo munosabatlarining jiddiy kengayishi; ikkinchi tomondan respublika sanoatining ustuvor sohalarda qo'shma korxonalar tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi kabi ijobiy holatlar kuzatilmoqda.

Ikki tomonlama hamkorlik ko'lamini barcha jabhalarni qamrab olgan. Bu munosabatlar zaminida mamlakat rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan o'zaro ishonchli va do'stona rishtalar yotadi. Tomonlar shuningdek SHHT doirasida ham doimiy ravishda o'zaro oliy darajadagi uchrashuvlar va tashriflar amalga oshirib turishadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov 1992, 1994, 1999, 2005 va 2011 yillarda XXRga tashrif buyurgan. 2001 va 2006 yillarda SHHT doirasida Shanxay shahrida o'tgan sammitda va 2008 yil avgust oyida Pekin shahrida bo'lib o'tgan 29-Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimlarida ishtirok etgan. Javob tariqasida XXR rahbarlari Szyan Szemin (1996 y) va Xu Szintaolar (2004 va 2010 y) O'zbekistonga tashrif buyurishgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A. Karimovning 2011 yil 19-20 aprel kunlari Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifi o'zbek-xitoy munosabatlarini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1994 yilda o'rnatilgan Savdo-iqtisodiy bitimga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay savdo rejimi o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yil ikki tomonlama tovar ayirboshlash 2085,3mln AQSH dollarga yetgan bo'lsa, shundan 899,9 mln AQSH dollar eksportni va 1185,4 ml AQSH dollar importni tashkil etdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Xitoy sarmoyasi asosida jami 347 ta korxona faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 57 tasi 100% Xitoy kapitali asosida tashkil qilingan. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vazirligida 64 ta Xitoy kompaniyasi akreditatsiya qilingan. Iqtisodiy hamkorlikning asosiy sohalari sifatida ikkitomonlama savdo, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

qayta ishlash, informatsion texnologiyalar tashkil etadi. Madaniy va fan-tehnika hamkorlik jadallik bilan rivojlanmoqda. 2003 yilda Xitoyning Chanchun provinsiyasida oltinchi jahon haykaltaroshlari forumi doirasida uchbu davlatda birinchi bor o'zbek millati vakiliga - Kamoliddin Behzodga bag'ishlangan haykal ochildi. 1998 yil "O'zbek-Xitoy" va 2007 yilda "XXR-Markaziy Osiyo" do'stlik jamiyatlari tashkil etilgan bo'lib, hozirga qadar o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. 2010 yil iyunda SHHT doirasida "Buyuk ipak yo'li – tinchlik yo'lida sayohat" xalqaro ko'rgazmasini o'tkazish uchun Chjan Deguan boshchiligida Xalqaro muammolarni tadqiqot qilish fondi delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda, bunga misol qilib talabalar, amaliyotchilar va vazirliklar orasidagi o'quv kurslarni keltirish mumkin. Turizm sohasida esa 2009 yilda O'zbekturizm va Xitoy milliy turizm ma'muriyati o'rtasida o'zaro anglashinuv memorandumini imzolandi. 2010 yildan boshlab O'zbekistonga guruh bo'lib sayohat qilish statusi taqdim etish masalasidagi dastlabki amaliy harakatlar boshlandi. Yuqorida keltirilgan fakt va dalillar O'zbekiston-Xitoy hamkorligi samarali rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Ikki mamlakat tovar aylanmasining muttasil oshib borayotganligi, xitoylik tadbirkorlar tomonidan respublikada kichik va o'rta tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shilyotganligi buning yaqqol misolidir.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, O'zbekistonda Xitoy tadbirkorlari ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar O'zbekiston oldida turgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga muayyan hissa qo'shmoqdalar.

II.2. O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida fan-texnika sohalardagi hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, katta tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bugun halqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlar qatoridan joy olib, o'z siyosatini mustahkam asosini yaratmoqda. Mustaqillik yillarida ko'plab chet el davlatlari bilan manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yilib, ilmiy madaniy sohalarda o'zaro tajribalar almashinib, shartnomalar imzolanmoqda. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi bilan barcha diplomatik munosabatlar qatorida fan-texnika sohalarda ham hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Bu borada 2004 yilning may oyida XXRga rasmiy davlat tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov "Jenmin jibao" gazetasi ro'znomasi muxbiriga bergan intervyusida shuni alohida qayd etgan edi: "Jahonda yetakchi mavqeini egallagan Xitoy tajribasi O'zbekiston uchun qiziqdir va biz munosabatlarimiz doirasini kengaytiradigan va ularni real mazmun bilan boyitadigan muayyan loyihalarni muhokama qilish niyatidamiz. Eng avvalo, bu nefti-gaz sektori, telekommunikatsiya, kompyuter ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va avtomobil mashinasozligi, kimyoviy va nefti-kimyoviy tarmog'i, maishiy texnika ishlab

chiqarishga bevosita Xitoy investitsiyalari sarmoyalarini va yuqori texnologiyalarini keng jalb qilish sohalariga tegishlidir".⁸⁶

Bizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini Xitoy Xalq Respublikasi 1991 yil 27 dekabrda tan olgan va 1992 yil 2 yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Bugungi kundaikki tomonlama hamkorlik ko'lami barcha jabhalarda olib borilmoqda. O'zbekiston ilm-fan sohalarida qudratli salohiyatga ega bo'lgan holda Xitoy Xalq Respublikasi bilan yaqindan hamkorlik qilish va rivojlantirish tarafdori bo'lib kelmoqda.

Shunday ekan 1992 yil 13 martda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi hukumatlari o'rtasida tuzilgan "Ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi Bitim", 1996 yil Xitoyning Pekin shahrida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar Akademiyasi o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi bitim, Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi Sintszyan filiali bilan 1999 yilda imzolangan xamkorlik to'g'risidagi bitimlar⁸⁷ ikki mamlakat o'rtasidagi fan-texnika yo'nalishidagi hamkorligining poydevori sifatida mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mzkur bitim fan-texnikani rivojlantirish, o'zaro tenglik va manfaatdorlikni ta'minlash, shuningdek bu ilmiy-texnik hamkorlik har ikki davlatning iqtisidiy tarqqiyoti uchun yordam berishi lozimligi talablaridan kelib chiqib quydagilarni ko'zda tutadi:

- Fan-texnika sohasidagi delegatsiyalar, olimlar va mutaxassislarning o'zaro almashinuvini tashkil etish;
- Fan-texnik infarmatsiya va hujjatlarning, turli buyum va materiallarning, "hou-xay" va litsenziyalrning o'zaro almashinuvi;
- Ilmiy-texnik simpoziumlar va ilmiy kanfrensiyalar tashkil qilish;
- Hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazish va tadqiqot natijalari hamda ishlanmalar bilan o'zaro almashinuv⁸⁸.

⁸⁶Gazeta "Jenimin jibao". Xitoy, 2004 y, 25may.

⁸⁷ G'ofurov N.O.O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalaridagi hamkorligi. Dissertatsiya. Namangan. 2011. 99- 100 betlar.

⁸⁸O'zR FA JA.XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida malumot. 1 – varaq.

Davlatning fan – texnika sohasidagi faoliyatining asosiy vazifalari to'g'risida fikr yuritir ekan Birinchi prezident Islom Karimov shunday deb takidlaydi: “Biz dunyodagi taraqqiy tobgan davlatlar safiga kirishni maqsad qilar ekanmiz, avvalombor olimlarimiz, ularning ilmi, obro'si olamda mashhur bo'lishi, jahon ilim-fanining yuksak mezonlariga mos bo'lishi darkor. Bugun biz olib borayotgan barcha ilmiy izlanishlar dunyodagi eng nufuzli ilim dargohlari bilan hamkorlikda amalga oshirishni, ularning ko'magi, tajribalari bilan boyitilishi kerak”⁸⁹.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xorijlik olimlari bilan yaqin va o'zaro manfaatli aloqalar yo'lga qo'yila boshlandi. O'zbekistonning xalqaro miqiyosdagi ilmiy aloqalarida respublikamizning bosh ilmiy muassasasi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni juda kattadir.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi 1943 yil tashkil topib, respublikaning yetakchi olimlarini birlashtirgan oliy ilmiy muassasasifatida faoliyat yuritmoqda. Oliy ilmiy muassasaning asosiy vazifasi – nazariy va amaliy fanlarning umumiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, respublikaning muhim ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan istiqbolli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ishlariga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil topishi va uning ilmiy-amali, nazariy faoliyati respublikada fan – texnika taraqqiyotida katta rol o'ynamoqda.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda yadro fizikasi va geofizika, elektironika, aerogidromexanika va gaz dinamikasi matematik statistika va funksional analiz, differensial va integral tenglamalar, sonlar naariyasi va hisoblash matematikasi, botanika va eleksiya, zoologiya va tibbiyot, bioximiya, biofizika va geoximiya, geologiya va seysmologiya sohalarida katta yutuqlarga erishilmoqda va amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

⁸⁹Karimov I.A. Fan vatan ravnaqiga xizmat qilsin. // Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 78.

O'zbekistonlik olimlarning erishgan yutuqlari jahon ilim-fan ahli tomonidan e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimida 2006 yilga kelib 48 ilmiy tadqiqot instituti, 3 ta birlashma, 3 ta markaz hamda 4 ta muzey faoliyat olib bormoqda. Fanlar Akademiyasi tizimida jami 5909 kishi, jumladan 2064 ilmiy xodim, 360 nafar fan doktori, 861 nafar fan nomzodi faoliyat ko'rsatgan⁹⁰.

O'zbekiston fan-texnika sohasida qudratli salohiyatga ega bo'lgan xolda xorijiy mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish va rivojlantirish tarafdori bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston – Xitoy o'rtasidagi fan-texnika Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar Akademiyasi alohida o'rin tutadi. Mazkur ilm dargohi 1949 yilda tashkil etilgan bo'lib, 11 mintaqaviy markaz, 84 tadqiqotchilik muassasalari, 3 universitet kiradi. XXR Fanlar Akademiyasi tizimida 430 dan ortiq ilmiy-texnologik korxonalar faoliyat ko'rsatadi, ulardan 8 nafari birja bozorida o'z aksiyalariga ega⁹¹.

Xitoy Fanlar akademiyasida institutlarida ishlayotgan 23 mingdan ortiq aspirantlar juda katta ilmiy salohiyatni tashkil qiladilar. Xitoyda shuningdek Tibbiyot fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasi, O'rmonchilik fanlar akademiyasi, Xitoy an'anaviy tibbiyoti ilmiy-tekshirish instituti, Geologiya fanlar akademiyasi, Temir yo'llar vazirligi ilmiy-tadqiqotchilik institute, Cho'yan va po'lat markaziy instituti, Rangli metallar markaziy akademiyasi ham faoliyat ko'rsatadi. 1999 yilgi ma'lumotlarga ko'ra Xitoyda 2.71 mln kishi ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashg'ullar⁹².

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institute XXR Shinjon-Uyg'ur muxtor tumanidagi Fanlar akademiyasi filiali biologiya, tuproqshunoslik va cho'l institute bilan qalpoqli qo'zi qorinlarni biotexnologik usulda o'stirish va ulardan Toshkent viloyatidagi o'quv xo'jaligida foydalanish haqida kelishuvlar

⁹⁰O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Joriy Arxivi (O'zR FA JA).- XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi ma'lumot. 2 – varaq.

⁹¹O'zR FA JA.XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida malumot. 3 – varaq.

⁹²O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.9-jild. 434 bet.

imzolandi. Shu bilan birga Mikrobiologiya institute tomonidan ishlab chiqarishdagi oziq-ovqat qoldiqlari biokonsentratlarini biotexnologik usullarda tayyorlanishi sohalarida Xitoy chorvachilik xo'chaliklarining birida sinovdan o'tkazish ham amalga oshirilgan⁹³.

Mamlakatimiz bilan XXR o'rtasidagi ilim-fan sohasidagi hamkorligi jadal rivojlanmoqda, ayniqsa olimlar, ilmiy tatqiqotchilar, talabalar, amaliyotchilar va vazirliklar o'rtasidagi kadrlar almashinuvi yaxshi samara bermoqda jumladan 1994 yilda 32 nafar O'zbekistonlik talaba Xitoyda ta'lim oldi. Mustaqillik yillarida respublika oliy o'quv yurtlarida 200 ga yaqin xitoylik ilmiy tatqiqotchi, stajyor va talabalar tahsil oldilar va ilmiy tadqiqot bilan shug'ullandi. 1999 yil 8 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida Bitim" imzolandi. Maskur bitimga asosan har yili tomonlar 20 nafar talaba, o'qituvchi, stajyor va tatqiqotchilarni o'zaro almashmoqdalar. Respublikamizning qator nufuzli oliy o'quv yurtlari O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti talabalari, professor-o'qituvchilari, va tatqiqotchilari XXRning yetakchi oliy o'quv yurtlariga malakasini oshirish va tajriba almashish uchun jo'natilmoqda.

Shu o'rinda takidlash kerakki Xitoyga yuborilgan o'zbeklar Xitoyning ko'plab oliy o'quv yurtlarida bo'lib o'tgan ilmiy anjuman va konfrentsiyalarda faol qatnashib kelmoqdalar. Ular Pekin til va madaniyat universiteti, Sinxuan universiteti, Xarbindagi texnologiya universiteti, Xuanjundagi ilmiy-texnologiya universiteti, Shanxay universiteti, Nankay universiteti, Tyantszin universiteti, Vuxan universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlarida bilim olmoqdalar. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ikkita olimi Xitoyga ilmiy safar bilan borgan bo'lsa, 1999 yilda yettita, 2000 yilda sakkista, 2001 yilda

⁹³O'zR FA JA.XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida malumot. 3 – varaq.

beshta⁹⁴ ilmiy tatqiqotchi Xitoyga borib o'z tajribalarini hamda ilmiy salohiyatlarini oshirib qaytdilar. Ikki davlat o'rtasida do'stona rivojlanib borayotgan ilmiy-texnik hamkorlik o'z samarasini bermoqda. Buning misoli sifatida quydagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. 2002 yilda Toshkentda "Xitoy Xalq Respublikasi fani va texnikasi kunlari" deb nomlangan ko'rgazma tashkil etildi. Bu ko'rgazmada Xitoyning fan va texnika sohalarda erishgan yutuqlarining ko'rgazmasi namoyish etildi. 2004 yilda Xitoyning Pekin shahrida O'zbekiston-XXR munosabatlariga bag'ishlangan ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanlarning tashkil etilishi davlatlar o'rtasidagi mustahkam do'stlik rishtalarini har tomonlama rivojlanib borishiga hizmat qilmoqda.

O'zbekiston va Xitoy yagona tektonik zonada joylashganligi uchun zilzilani oldindan aniqlash va zilzila oqibatlarini bartaraf etishda yaqindan hamkorlik qilish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Xitoy yordami bilan O'zbekistonda tashkil etilayotgan zamonaviy seysmik stansiyalar tarmog'i o'zaro foydali ilmiy hamkorlikning yaqqol misolidir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Botanika institute bilan hamkorlikda Kopetdog' va Pomir, Orolbo'yi mintaqalariga ekspeditsiyalar uyishtirildi va uning natijasida gerbariylarning o'ziga xos kolleksiyalari to'plandi. Paxtachilik sohasidagi ilg'or tajribalar bilan almashish maqsadida "Biolog" ilmiy ishlkab chiqarish birlashmasi Xitoyning Sichuan Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining Paxtachilik institute bilan urug'chilik ishlarini yanada yaxshilashni ko'zda tutgan shartnomani imzoladi⁹⁵.

Mamlakatimizning Xitoy Xalq Respublikasi bilan olib borayotgan fan-texnika yo'nalishidagi hamkorligining rivojlanib borishida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu Akademiya bilan Xitoy Fanlar Akademiyasi o'rtasida ko'p sohalarda hamkorlik qilinmoqda. Masalan radiofizika, yarim o'tkazgichli materiallar va uskunalar, boshqarishni

⁹⁴ G'ofurov N.O.O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalardagi hamkorligi. Dissertatsiya. Namangan. 2011 y. 107.B

⁹⁵O'zR FA JA.XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida malumot. 5 – varaq.

avtomatlashtirish tizimi uchun EHMDan foydalanish, astrofizika, mikrobiologiya, biotexnologiya, virusologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, biorganik kimyo, o'simlik moddalari kimyosi, tuproqshunoslik va agrokimyo sohalarda ilmiy-texnikaviy hamkorlik o'rnatilgan. Shuningdek, bu yo'nalish bo'yicha o'zaro ilmiy tajribalar almashmoqda. 2003 yilda O'zRFA Tarix institutining ilmiy hodimlari Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib o'tgan halqaro ilmiy anjumanda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi⁹⁶. 2004 yilda esa 100 nafarga yaqin O'zbekistonlik o'qituvchilar Xitoyning Shanxay shahriga axborot texnologiyalarini o'rganish va malaka oshirish maqsadida yuborildi. 2006 yilda Xitoy Milliy Markaziy Universiteti rektori E.Shtay boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy Universitetiga tashrif buyirdi. Tashrif chog'ida delegatsiya a'zolari, O'zbekiston Milliy universiteti rektori va fakultet dekanlari bilan o'zaro fikr almashish bilan bir qatorda kelajakdagi hamkorlikning yo'nalishlari bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olindi. Bu uchrashuv natijalariga ko'ra xitoyliklar O'zbekiston Milliy Universiteti qoshida xitoy tili kafedrasini ochilishi haqidagi taklifni bildirib o'tishdi. Shunday qilib davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar har ikkila davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi fan-texnika hamda ilmiy-texniko viy hamkorlikni rivojlantirishdan, o'zaro tajriba almashishdan har ikki mamlakat ham birdek manfaatdor. Shu munosabat bilan ilmiy hamkorlikning mustahkam huquqiy ba'zasi yaratildi. Xitoyning O'zbekiston bilan hamkorligini jadallashtirish uchun ikki mamlakat hukumatlariaro imzolangan bitimlar, O'zbekiston hududiga Xitoy tomonidan kiritilayotgan yirik sarmoya loyihalari, amalga oshirilayotgan fan-texnika hamkorlik yo'nalishlari kelajakda, yanada taraqqiy topishi maqsadlari doirasida yetarli sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa Xitoyning Shanxay shahrida tuzilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) bu aloqalarni mustahkamlovchi yana bir manba vazifasini bajarmoqda. Bunday hamkorlik aloqalarini olib

⁹⁶O'zbekiston Respublikasi FA Tarix institutining 2008 yil xisoboti, 15-bet.

borilishidan ko'zlangan asosiy maqsad nafaqat ilmiy madaniy sohalarni rivojlantirish balki halqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini bog'lash hamda hududda tinchlik va totuvlikni ta'minlashdan ham iboratdir.

III-BOB. O'zbekiston - Xitoy madaniy aloqlari va hamkorlikning zamonaviy holati.

3.1. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasida madaniy hamkorlikning asosiy jihatlari.

Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng jahon hamjamiyatida o'z o'rnini, o'z mavqeyi va o'z so'ziga ega bo'lib bormoqda. Dunyo miqqiyosidagi ko'plab mamlakatlar yurtimiz bilan deyarli barcha jabhalarda xalqaro do'stona aloqalarni o'rnatib kelmoqda. Hozirda o'zining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan dunyoning ko'plab mamlakatlariga o'rnak bo'layotgan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) hamda O'zbekiston o'rtasida madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda do'stona aloqalar o'rnatib kelinmoqda. Ayniqsa, ta'lim, madaniyat va ilm-fan sohasidagi o'rnatilayotgan munosabatlar kundan-kunga rivojlanib, o'z natija-mahsulini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan ilm-fan sohasidagi hamkorligi masalalariga to'xtalgan holda, avvalo, bu yo'nalishda huquqiy

asoslarni yaratilishiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, 1992-yilning 13 martida O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi hukumatlari o'rtasida tuzilgan "Ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi Bitim"⁹⁷ ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlikning qonuniy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 1996-yil Pekinda O'zR Fanlar Akademiyasi bilan XXR Fanlar Akademiyasi o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, XXR Fanlar Akademiyasi Sintszyan filiali bilan 1999-yilda imzolangan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar⁹⁸ ilmiy sohadagi samarali hamkorlik uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi.

O'zbek-Xitoy madaniy hamkorligini rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-marifiy aloqalar bo'yicha do'stlik jamiyatlari Kengashining ahamiyati juda katta.

XXRning ilmiy markazlari bilan hamkorlikda turli yo'nalishlarda izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zR FA Elektronika instituti elektr yoritqichlarni ishlab chiqarish, O'zR FA Kibernetika instituti ma'lumot va boshqarish sohasida hamkorlik qilmoqdalar, O'zR FA Geologiya va geofizika instituti olimlari xitoylik hamkasblari bilan Janubiy Tyan-Shan rudasining tashkil topishi va metallga aylanish jarayonlarini hamkorlikda o'rganmoqdalar⁹⁹.

O'zR FA Seysmologiya instituti XXR Davlat Seysmologiya Byurosi bilan aloqalar o'rnatgan. Bu ikki muassasa tomonidan 1991 yil may oyida o'zaro anglashuv protokoli imzolangan. XXR FAning Seysmologiya Byurosi mutaxassislari tomonidan O'zbekistondagi uchta seysmik stantsiyani qayta jihozlash to'g'risida shartnoma tuzildi va hamkorlikda seysmologik laboratoriya tashkil etishga kelishib olindi. 2001 yil iyul oyida qo'shma stantsiya tashkil qilish to'g'risidagi bitim imzolandi. Mazkur bitim doirasida Xitoy Seysmologiya Byurosi tomonidan 400 ming AQSH dollari hajmida zarur asbob-uskunalar

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi joriy arxivi (O'zR FA JA.) - XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida ma'lumot. 1-varaq.

⁹⁸ O'zR FA JA. - XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida ma'lumot. 2-varaq.

⁹⁹ O'zR FA JA. - XXR bilan O'zR FA JA. - XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida ma'lumot. 2 -varaq.

ajratildi. 2002 yilda esa O'zR FA Seysmologiya institutiga 5 ta kompleks raqamli seysmik stantsiyalar beg'araz yordam sifatida taqdim etildi¹⁰⁰.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o'rtasida 1992 yil 13 martda tuzilgan madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va sport sohalarida hamkorlik to'g'risidagi bitim, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarning huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur bitimda madaniy hamkorlik shartlari va asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston san'at ustalarining Xitoydagi gastrollar davomidagi chiqishlari ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 1994 yili "Shodlik" Davlat ashula va raqs ansambli XXRda gastrolida bo'ldi. 20 kun mobaynida ansambl ijodiy guruhi 12 ta shaharda bo'lib, 16 ta kontsert berdi. 2001 yil dekabr oyida "Tanovar" raqs ansambli Tayvanda o'tkazilgan xalqaro festivalda ishtirok etdi¹⁰¹. Har bir kontsert oldidan karnay, surnay, nog'ora hamohangligida ijro etiladigan "O'zbekiston samosi" raqsi tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Sozanda Abbas Qosimov uchta doira chalib chiqqanida davomli olqishlar yangradi. Ansambl dasturidan o'rin olgan "Temuriy malikalar", "Bibixonim", "Xalil Sulton» raqs spektakllaridan lavhalar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Hurriyat Isroilova ijrosidagi "Munojot", "Nihol" mukofoti sovrindori Nargiza Qarshiboeva ijrosidagi "Farg'ona ruboiysi" qo'shiqlari, raqqosa qizlar ijrosidagi "Sumbula", "Dilxiroj", "Tanovor", "Tantana", Erkin Qahhorov ijrosidagi "Andijon polkasi", "Lagan o'yini" kabi raqslar festivalishtirokchilari va mutaxassislar tomonidan yuksak baholandi.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniyat, fan, texnika va ta'lim sohasida hamkorlik rivojlanmoqda. Xitoy vakillari Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, O'zbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili o'tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etadilar.

¹⁰⁰ O'zR FA JA. - XXR bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida ma'lumot. 3 -vara.

¹⁰¹ O'zR OO'MTV JA. Ta'lim sohasida XXR bilan hamkorlik to'g'risida axborot. 1-vara.

Xitoylik sirk ustalari o'z san'at va mahoratlari bilan jahon miqyosida katta e'tirofga sazovor bo'lganlar. 1994 yilda Toshkentga xitoylik sirk artistlari 20 kunga gastrolga keldilar. Ularning chiqishlari muxlislar va soha mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi .

Xitoylik san'atkorlar Samarqand shahrida o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida ham muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqdalar. 1997-yilda bo'lib o'tgan festivalda xitoylik san'atkor Se Liin 2-o'rin sohibi bo'ldi.

O'zbekiston–Xitoy madaniy hamkorligini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar bo'yicha do'stlik jamiyatlari Kengashining ahamiyati juda katta. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 25 martdagi qaroriga muvofiq Xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy assotsiatsiyasi tashkil etilgan. 1997-yil 15 maydan u O'zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar bo'yicha do'stlik jamiyatlari Kengashiga aylantirilgan .

"O'zbekiston – Xitoy" do'stlik jamiyati eng tajribali va uzoq vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan jamoat tashkilotlaridan biri xisoblanadi. U 1958-yil 30 oktyabrda Sovet-Xitoy do'stlik jamiyatining o'zbek bo'limi sifatida tashkil topgan.1987-yildan esa "O'zbekiston-Xitoy" do'stlik jamiyati sifatida faoliyat yurita boshlagan¹⁰². Uning bosh maqsadi – mamlakatlar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamjixatlik va xar tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, madaniyat va tarix bo'yicha bilimlarni o'zaro tarqatish hamda madaniy hamkorlik doirasida turli tadbirlar o'tkazishdir.

"O'zbekiston-Xitoy" jamiyati tarkibiga 19 ta boshlang'ich tashkilot jamoat boshqarmalari, sanoat korxonalari, davlat rahbarlari, fan, madaniyat va oliy o'quv yurtlari vakillari kirgan. Ular turli madaniy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtirok etadilar hamda ikki mamlakat halqlarining ma'naviy qadiriylarini boyitishga munosib hissalarini qo'shadilar.Mazkur jamiyat butun faoliyati

¹⁰²O'zR MDA. M.2-fond, 1-ro'yxat; 101-ish,10-varaq

davomida muntazam ravishda respublika jamoatchiligini Xitoy xalqining tarixi, hayoti, madaniyati, ilm-fanni bilan yaqindan tanishtirib keldi. Jamiyat faollari xitoyliklarning bahor bayrami – Chun Szya XXR tashkil topgan kun (1949 yil 1 oktyabr) va boshqa Xitoy tarixiga oid muhim sanalarga bag'ishlangan tadbirlar, madaniyat va san'at arboblari, fan, ta'lim, vakillari, shuningdek, ishbilarmonlar, tadbirkorlar va hokazolar bilan uchrashuvlar, fotoko'rgazmalar, kitobxonlik kechalarini uyishtirib kelmoqda.

Ushbu jamiyat ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish sohasida samarali faoliyat olib bordi. 1992-yil 5-12 noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Do'stlik jamiyati kengashi vakillari Shinjon-Uyg'ur muhojir tumaniga tashrif buyurdilar. Tashrif chog'ida hamkorlik aloqalari rivojlantirishga kelishib olindi. Shu bilan birga Qashg'ar va Andijon shaharlari o'rtasida do'stlik aloqalarini o'rnatish va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bayonnoma imzolandi¹⁰³.

Jamiyat Xitoyning Shansi viloyatining Sian shahri bilan ham samarali hamkorlik aloqalari o'rnatgan. 1992-yil Sian shahrining hokimining o'rinbosari Ma Chjenxua boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi O'zbekistonga keldi. Mehmonlar yurtimizning tarixiy joylari, imoratlar, diqqatga sazovor joylarini ziyorat qildi. Shu kuni O'zR DJK va shahar hokimiyati o'rtasida hamkorlik bitimi imzolandi¹⁰⁴. 1992 yil 7-17 iyul kunlari Sian shahri hokimiyati delegatsiyasi Xitoyda bo'lib o'tadigan qadimiy madaniyat va san'at festivalida ishtirok etuvchi ansamblni saralab olish uchun tashrif buyurdi¹⁰⁵. Tashrif chog'ida Shansi viloyati va uning ma'muriy markazi bo'lgan Sian shahri hokimiyati bilan iqtisodiyot, madaniyat va san'at sohalarida hamkorlik aloqalari mustahkamlash to'g'risida davra suhbatlari va ochiq muloqotlar o'tkazildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi uzoq tarixiy ildizlarga va mustahkam an'analarga ega bo'lgan do'stligi, o'zbek va xitoy

¹⁰³O'zR MDA. M.2-fond, 1-ro'yxat; 101-ish,13-varaq. "O'zbekiston –Xitoy" do'stlik jamiyatining XXR jamoatchiligi bilan aloqalari to'g'risida ma'lumot.

¹⁰⁴O'zR MDA. M.2-fond, 1-ro'yxat; 101-ish,10-varaq

¹⁰⁵O'zR MDA. M.2-fond, 1-ro'yxat; 101-ish,10-varaq

xalqlarining do'stona aloqalari sifat jihatdan yangi darajaga chiqdi va ma'naviy-madaniy almashinuvning ko'p qirrali shakllarini hayotga tatbiq etdi.

O'zbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qo'shni va hamkorni ko'radi. XXR iqtisodiy va harbiy salohiyatining rivojlanishi va tinchliksevarlikka asoslangan tashqi siyosati uning xalqaro aloqalardagi obro'-e'tiborining kuchayib borishida muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2006 yili do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo Shartnomaning imzolangani ikki tomonlama aloqalar tarixida muhim voqea bo'ldi. Ushbu Shartnoma hamkorlikni uzoq muddatli asosda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi va 16 yil mobaynida imzolangan 200dan ziyod o'zbek – xitoy shartnomalarini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, xitoy tili diplomatiya sohasidagi maxsus leksikani tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur ilmiy va nazariy tahlil etish ehtiyoji tug'ilmoqda. Qolaversa, xitoy tilidagi diplomatik leksika va ularning morfologik xususiyatlari monografik planda tadqiq etilmagan. Mazkur dissertasiya hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini, diplomatiya sohasida so'nggi 16 yil ichida keng qo'llanilayotgan leksik qatlamni o'rganishga, uning diaxronik va sinxronik tomonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, diplomatiya sohasiga oid hujjatlar va muzokaralar ahamiyatining o'sib borishi bilan ham bog'liq.

Madaniy va fan-tehnikaviy hamkorlik jadallik bilan rivojlanmoqda. 2003-yilda Xitoyning Chanchun provinsiyasida oltinchi jahon haykaltaroshlari forumi doirasida uchbu davlatda birinchi bor o'zbek millati vakiliga - Kamoliddin Behzodga bag'ishlangan haykal ochildi. 1998-yil "O'zbek-Xitoy" va 2007 yilda "XXR-Markaziy Osiyo" do'stlik jamiyatlari tashkil etilgan bo'lib, hozirga qadar o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. 2010 yil iyunda SHHT doirasida "Buyuk ipak yo'li – tinchlik yo'lida sayohat" xalqaro ko'rgazmasini o'tkazish uchun Chjan

Deguan boshchiligida Xalqaro muammolarni tadqiqot qilish fondi delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda, bunga misol qilib talabalar, amaliyotchilar va vazirliklar o'rtasidagi o'quv kurslarni keltirish mumkin.

Turizm sohasida esa 2009 yilda O'zbekturizm va Xitoy milliy turizm ma'muriyati o'rtasida o'zaro anglashinuv memorandumini imzolandi. 2010-yildan boshlab O'zbekistonga guruh bo'lib sayohat qilish statusi taqdim etish masalasidagi dastlabki amaliy harakatlar boshlandi.

Dissertatsiyada shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarda turizm va sport sohasidagi hamkorlik ham muhim o'rin tutishi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, istiqbol yillarida O'zbekistondagi turistik muassasalar va Xitoy turistik firmalari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi va u samarali rivojlanib bormoqda.

III.2. Ikki mamlakat madaniy aloqalarining rivojlanishida turizm va sport sohalarining tutgan o'rni.

Bugungi kunda mamlakatlarimiz xalqlari o'rtasida ilmiy va madaniy-ma'naviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga bo'lgan ulkan intilish mavjud. Bu o'z navbatida xalqaro hamkorlik amaliyoti ko'rsatishicha, davlatlar o'rtasidagi ishonch va o'zaro tushunishning yanada mustahkamlanishiga olib boradi.

O'zbeki-Xitoy ilmiy va madaniy hamkorligi jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. O'zaro madaniy hamkorlikning samarali rivojlanishi ko'p jihatdan O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining samarali faoliyati bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi mamlakatning yetakchi madaniy muassasasi sifatida madaniyat sohasidagi turli bitimlash imzolash va uni amalga oshirishda davlat organi vakili bo'lib hisoblabadi. U xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamkorlik dastirini amalga oshirishda asosiy muvofiqlashtiruvchi idora vazifasini bajaradi.

Mustaqillikning ilk davridanoq O'zbekiston Respublikasida xalqimizning madaniy-ma'naviy qadiriylariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov haqli ravishda aytganlaridek "biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadiriylarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"¹⁰⁶. Shu munosabat bilan O'zbekiston horijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirar ekan, madaniy sohada hamkorikka alohida e'tibor qaratdi. Ushbu jarayonni O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik aloqalarida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston — Xitoy hamkorligini yanada kengaytirish va rivojlantirishdan har ikkala tomon ham manfaatdor. O'zbekiston tarixiy obidalar, noyob tabiat manzaralari asosida ulkan turistik salohiyatga ega bo'lganligi bilan bir qatorda davlatchilik tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mamlakatimizda sport sohasiga ham alohida etibor bilan qaralmoqda bu esa turizm va sport sohalarini jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishdagi o'ta muhim ahamiyatini hisobga olgan O'zbekiston Respublikasi hukumati uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishda hizmat qiladi.

Bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktyabrda "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi faoliyatini tashkil qilish masalalari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi¹⁰⁷. Hozirgi paytda "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi o'z tarkibiga qator mehmonxonalar, turistik bazalar, sayyohlik firmalari, qurilish va savdo tashkilotlari, bank va sug'urta firmalarini jamlagan keng qamrovli tashkilotdir. "O'zbekturizm" Miliy Kompaniyasi O'zbekistondagi turistik firmalarning faoliyat olib borishi uchun litsenziyalar berish, xorijlik

¹⁰⁶Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent. O'zbekiston. 1999. -B. 58.

¹⁰⁷"O'zbekturizm" MK JA. – XXR da turizm taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumot. 1 –varaql.

sayyohlarni diqqat-e'tiborini tortuvchi qiziqarli yo'nalishlar ishlab chiqish borasida keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirmoqda¹⁰⁸.

O'zbekiston xalqaro turistik aloqalarni rivojlantirar ekan, Xitoy kabi qadimiy, madaniy-tarixiy obidalarga boy bo'lgan mamlakat bilan hamkorlikni kengaytirishga katta e'tabor bermoqda.

Xitoyda turizm industiriyasi jadallik bilan o'sib borayotgan xalqaro muqqiyosda raqobatbardoshligi juda yuqori bo'lgan soha hisoblanadi. 2002-yilda turizm sanoatidan kelgan umumiy daromad 67.3 mlrd.dollarga yetdi. Bu Xitoy yalpi ichki maxsulotining 5.44 % ni tashkil etdi. 2003 yilda Xitoyga 32.7 mln.xorijlik turistlar kelib ketganlar. 2004-yilda 29 mln.xitoyliklar xorijiy mamlakatlarga sayohatga chiqishgan¹⁰⁹.Xorijiy mamlakatlarning xitoylik turistlarni jalb etishga qiziqishlari ortib borishiga sabab bo'layotgan eng asosiy omillardan biri ular to'lov qobiliyatlarining yuqoriligidir.Xar bir xitoylik turist xorijiy sayohatlar vaqtida turistik xizmatlar bilan bog'liq bo'lmagan holda o'rtacha 980 dollar xarajat qiladi.Xitoyda xorijiy turizmning o'sib borishi aviakompaniyalar, mehmonxonalar, turistik firmalar daromadlarining oshishi imkoniyatlarini yaratadi.Shu jihatdan O'zbekiston uchun Xitoy bilan turizm sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash istiqbolli sohadir¹¹⁰.

Mustaqillik yillarida yurtimizdagi turistik firmalar va Xitoy turistik muassasalari bilan hamkorlik aloqlari o'rnatildi va samarali rivojlanib kelmoqda.

O'zbekiston uchun tashqi ilmiy-madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish, muzokaralar olib boorish, hujjatlarni rasmiylashtirish kabi sohalarda yetarli tajribaga ega bo'linmaganligi turizm sohasidagi hamkorlikning rivojlanishiga ham bir muncha salbiy ta'sir ko'rsatgan.Lekin, dastlabki davr qiyinchiliklariga qaramasdan ikki mamlakat xalqlarining sayyohlik borasidagi hamkorligini rivojlantirishga o'zaro birdamlik bilan harakat qilayotganligi bu sohalarni keying davrlarda ham yuksak darajada rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

¹⁰⁸“O'zbekturizm” MK JA. – XXR da turizm taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumot. 1 –varaq.

¹⁰⁹“O'zbekturizm” MK JA. – XXR da turizm taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumot. 1 –varaq

¹¹⁰“O'zbekturizm” MK JA. – XXR da turizm taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumot. 1 –varaq

Mamlakatimizda turizm taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan asosiy manbalardan biri O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidentining 1999 yil 15 apreldagi "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni¹¹¹ alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston xalqaro turistik aloqalarni rivojlantirar ekan, Xitoy kabi qadimiy va madaniy-tarixiy obidalarga boy bo'lgan mamlakat bilan hamkorlikni kengaytirishga katta etibor bermogda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov 1999 yil Xitoyga qilgan rasmiy tashrif chog'ida imzolagan "O'zbekturizm" Miliy Kompaniyasi va Xitoy Xalq Respublikasi Milliy turizm ma'muriyati o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim, "O'zbekturizm" Miliy Kompaniyasi va "China International Touristic Service" kompaniyasi bilan hamkoprlk bitimlari ikki mamlakat o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "China International Touristic Service" Kompaniyasi xitoylik sayohatchilarni O'zbekistonga yuborish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirmogda¹¹². Bu borada O'zbekistonda ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan Masalan: "Aviatur", "Avto Olami", "Jannat oromi", "Mika Planet", "Nafosat Tur", "Planeta Tur", "Sport Tur" kabi yirik turistik firmalar o'z faoliyatlarini O'zbekiston sayyohlarini Xitoy bilan yaqindan tanishtirishga yo'naltirilgan¹¹³.

Hozirgi kunda O'zbekistonning "Chevar Orli" va Xitoyning "Komfort" kompaniyalari o'rtasida Xitoy sayyohlarini O'zbekistonga jo'natish bo'yicha aloqalar yo'lga qo'yilgan va u samarali faoliyat olib bormogda. Xitoyning "Chjoa Shah" va "Shang - Tang" sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlayotgan, O'zbekistonning "Avia Tur" va "TTS - Bridj" sayyohlik firmalari ham shu yo'nalishda muvaffaqiyatli rivojlanib bormogda.

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri. Xabarnoma. 1999, №2(34), - B. 46.

¹¹²"O'zbekturizm" MK JA. – O'zbekiston – Xitoy hamkorligi to'g'risidagi ma'lumot. 1 – varaq.

¹¹³"O'zbekturizm" MK JA. – O'zbekiston – Xitoy hamkorligi to'g'risidagi ma'lumot. 1 – varaq.

Jahon miqiyosida Buyuk Ipak yo'li tarixiga bo'lgan qiziqish juda katta. Buni hisobga olgan holda "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi Xitoy sayyohlik tashkilotlari bilan hamkorlikda Osiyo, Yevropa va Amerika davlatlarining sayyohlari uchun O'zbekiston va Xitoy hududlarini bir biri bilan bog'lab turuvchi Buyuk Ipak yo'li shaharlari bo'ylab o'tadigan bir qator sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda tashkil etilgan turistik firmalarning sayyohatchilarga hizmat ko'rsatish darajasini oshirish, hizmat turlarini jahon andozalari talablari darajasiga ko'tarish, tarixiy obidalarimizni tarixini mukammal biladigan kadrlar sonini ko'paytirishdek vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Mamlakatimiz hududidan G'arb va Sharq davlatlarini bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining asosiy trassalari o'tgan va mamlakatimiz shaharlaridagi turli tarixiy davrlarga oid ko'plab me'moriy obidalar shubhasiz, turli mamlakatlardan, jumladan Xitoydan kelayotgan sayyohlarda katta taassurot uyg'otmoqda. Shu bilan birga yurtimizda turizimning ikkinchi yo'nalishi bo'lgan ekoturizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Yurtimizning betakror tabiati, tog'lardan oqib tushuvchi daryo va ko'llari, noyob mineral buloqlari, qo'riqxonalari ekoturizmni rivojlantirishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati turistik sohani rivojlantirish va xorijiy sayyohlar oqimini yurtimiz tomonga burish maqsadida samarali reklama tizimini ishlab chiqmoqda. Yurtimizga tashrif buyirishni istagan sayyohlar uchun reklama roliklari, turistik yo'nalishlar bo'yicha yo'l ko'rsatgich va risolalar shuningdek, maxsus sayyohatchilar uchun tarixiy joylar va nomlarning qisqacha tarixi yozilgan kitoblar ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va Xitoy bir-biriga tarixiy, madaniy va hududiy jihatdan yaqin bo'lgan ikki mamlakat xalqlari o'z hamkorlarining ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy qadriyatlariga katta qiziqish bilan qaradilar. Bu esa o'z navbatia turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun asosiy poydevor vazifasini bajarmoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqarini kun sayin rivojlanib borishida sportning alohida o'rni bor. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi¹¹⁴. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, Vatanimiz futbolining halqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993 yil 18 martda "O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 1996 yil 17 yanvarda "O'zbekiston futbolini rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus qarorlar qabul qildi.

Jaxon sport maydonlarida O'zbekiston va Xitoy sportchilari ko'p bora bellashdilar, ikki mamlakat sportchilari O'zbekistonda va Xitoyda o'tkazilgan ko'plab musobaqalarda faol ishtirok etib kelishmoqda. Xususan 1996 yil 4-11 fevral kunlari Xitoyning Xarbin va Yabuli shaharlarida bo'lib o'tgan III qishki Osiyo o'yinlarida O'zbekistondan Lina Cheryazova boshchiligidagi o'n nafar siportchi ishtirok etdi¹¹⁵. Shuningdek sportchilarimizning 1999 yil sentyabrda Xitoy Xalq Respublikasining Chende shahrida o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Yuliya Borzova va Nadejda Pishulinalar ikki kishilik baydarkada 500 metrlik masofada birinchi o'rinni olishdi, 1000 metrlik masofada esa ikkinchi o'rinni egalladilar. Yuliya Borzova yakka tartibdagi baydarka musobaqalarida kumush medaliga ega bo'ldi. Dmitriy Sotskiy kanoeda 1000 metrlik masofada oltin, 500 metrlik masofada kumush medalni qo'lga kiritdi. Baydarkachilardan Mixail Tarasov va Dmitry Stirjkovlar ham kumush medal bilan taqdirlandi¹¹⁶.

O'zbekistonda barcha sport turlari qatori boks, og'ir atletika, ham yaxshi rivojlandi. Toshkent, Andijon va Buxoroda o'ziga xos boks maktablari yaratildi. 1998 yil iyun oyida Xitoyning Changding shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha

¹¹⁴ O'zR MSIV JA. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy hamkorlik haqida ma'lumot. 3-varaq.

¹¹⁵ Тюриков В., Шагулямов. По пути независимости: Республика Узбекистан. Люди, события, даты. 1991-2000. - Ташкент: Г.Гулям, 2000.- С.343.

¹¹⁶ O'zR MSIV JA. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi sport sohasidagi hamkorlik haqida ma'lumot. 4 – varaq.

jahon kubogida Muhammadqodir Abdullaev va Lazizbek Zokirovlar oltin medal, To'liqin Turg'unov kumush medal, Narimon Otayev, Dilshod Yorbekov va Dilshod Yo'ldishevlar bronza medallariga egalik qildilar¹¹⁷. 1998 yil sentyabrda Xitoyning Chong-Tin shahrida bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasida og'ir atletika bo'yicha XI Osiyo chempionatida 14 mamlakatdan kelgan 70 nafar sportchilar ishtirok etishdi. Shu musobaqada O'zbekistonlik sportchilar ham ishtirok etishib 18 ta medal bilan birinchi o'rinni egalladilar¹¹⁸. O'zbekistonlik sportchilar shu qatorda shaxmat, tennis, suv sporti va boshqa sport turlari bo'yicha ham dunyoni turli davlatlarida o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etishib faxrli o'rinlarni egallashdi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston - Xitoy xalqlari hamkorligi qadimiy, tarixiy ildizlarga ega. Xalqlarimiz qadimdan Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yaqindan hamkorlik qilib kelganlar. Mustaqillikdan so'ng bu munosabatlar ana shu tarixiy an'nalarning uzviy davomi bo'lib hamkorlikning mazmunan yangi shakllari bilan boyimoqda. Turizim va sport sohasiga qaratilayotgan etibor kun sayin oshib bormoqda. Bu kabi hamkorlikning barcha yo'nalishlari, avvalambor madaniy-ma'naviy hamkorlikni tubdan kengaytirish bo'yicha O'zbekiston-Xitoy muloqotini yangi bosqichga ko'tarish yo'lida muhim amaliy qadam bo'lmoqda.

¹¹⁷ Тюриков В., Шагулямов. По пути независимости: Республика Узбекистан. Люди, события, даты. 1991-2000. - Ташкент: Г.Гулям, 2000.- С.368.

¹¹⁸ O'zR MSIV JA. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi sport sohasidagi hamkorlik haqida ma'lumot. 5 – varaq.

Xulosa

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin jahon hamjamiyati safiga dadil kirib bordi va mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirmoqda. Bu jarayonlar oson boshlangani yo'q albatta, chunki tashqi siyosat O'zbekiston uchun davlat faoliyatining butunlay yangi yo'nalishi edi. O'zbekiston oldida mustaqil tashqi siyosatning huquqiy bazasini yaratish, asosiy tamoyillarini ishlab chiqish, tashqi siyosatni amalga oshiruvchi institutlarni vujudga keltirish, o'zaro foydali hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish, jahon ho'jaligiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv kabi muhim va ayni paytda murakkab vazifalar turar edi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatning teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki

ishlariga aralashmaslik, barcha mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda siyosat yuritish, jahon ho'jaligi va xalqaro mehnat taqsimotida keng ishtirok etish uchun ochiq iqtisodiyotni barpo etish kabi tamoyillarga asoslangan mustaqil tashqi aloqalar strategiyasini ishlab chiqdi va izchillik bilan amalga oshira boshladi.

O'zbekiston Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorligi mustaqil tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Muistaqillik yillarida O'zbekiston-Xitoy ilmiy-madaniy aloqalari izchillik bilan samarali rivojlanib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, uning oldida mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq bir qator vazifalar turar edi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lishiga erishish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy strategik vazifa edi. Shuni hisobga olgan holda, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga to'laqonli a'zo bo'lishga mamlakatimiz milliy manfaatlarini jahon miqoyosida himoya qilishga yo'naltirilgan mustaqil tashqi siyosatni amalga oshira boshladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'nga mamuriy-buyruq bozlik tizimidan voz kechib ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti va ochiq tashqi siyosatga asoslangan huquqiy-demokratik jamiyat barpo etishga kirishildi. Birinchi prezident Islom Karimov boshchiligidagi tashqi siyosat bo'yicha o'z modelini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish prinsiplarini ishlab chiqish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv yo'lini mustaqil belgilash bo'yicha amaliy harakatlar qilindi.

O'zbekiston tashqi ilmiy-madaniy aloqalarini mustahkamlab oldi. Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro ko'plab sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish eng asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Bu mamlakatimizning O'siyo mintaqasida joylashganligi, mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, yagona iqtisodiy makonni shakllantirish, transport yo'llarining umumiyliги kabi masalalardagi qarashlarning bir-biriga yaqinligi bilan asoslanadi.

O'zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu ikki mamlakat bir-biri bilan bir necha ming yillik hamkorlik rishtalari bilan bog'langan, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz bir-biri bilan chambarchas bog'liq va aloqalarning tarixiy ildizlari zamonaviy bosqichdagi hamkorlikning rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoyda amalga oshirilgan keng miqqiyosdagi iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy islohotlar tajribasi O'zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada esa mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq keng ko'lamli ishlar amalga oshirila boshlandi. Davlatimiz rahbarining bir qator rasmiy uchrashuvlarida har tomonlama hamkorlikni amalga oshirish uchun keng yo'l ochgan, fan-texnika va madaniy sohalarda xalqaro aloqalarni yuksaltirishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan muhim bitimlarga kelishilgan.

O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi munosabatlarda xalq diplomatiyasi madaniy-manaviy muloqotning turli-tuman shakllarida ko'rinadi. Madaniyat, ilim-fan, ta'lim, sayyohlik va sport sohalaridagi aloqalar xalqlarning o'zaro ma'naviy boyishiga hamda yanada yaqinlashuviga yordam beradi. Bu

sohada O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi juda katta o'rin tutadi. Uning faoliyatini yanada qo'llab quvvatlash O'zbekiston va Xitoy xalqlarining do'stona aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Xitoy hamkorligining iliy taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston qisqa vaqt mobaynida tashqi siyosat strategiyasini ishlab chiqdi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirib, mustaqil tashqi siyosat yurita olishiga qodir ekanligini amalda isbotladi. Mustahkam huquqiy asosga, milliy va umuminsoniy qadiriylarning mushtarkligiga, xalqlarning jipslashuvi va xamkorligini mustahkamlash, o'zaro manfaatdorlik g'oyalariga tayangan holda ilmiy va madaniy sohalarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratdi.

Ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar ham qadimiy tarixiy ildizlarga ega va uning zamonaviy imkoniyatlari ham katta. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madani, ma'naviy hamkorlikning yanada samarali usullarini ishlab chiqish zarur.

O'zaro madaniy hamkorlikni yanada samarali rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar bo'yicha do'stlik jamiyatlari Kengashi quyidagi sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirishlari lozim:

- tomonlar o'z mamlakatlarida o'tkaziladigan madaniyat san'at yo'nalishidagi festivallar, tanlovlar, ilmiy-amaliy simpoziumlar, va seminarlarga bir-birlarini muntazam ravishda taklif etish;
- ta'sviriy va amaliy san'at asarlarida iborat o'zaro ko'rgazmalarni uyushtirish, soha mutaxassislarining almashinuvini tashkil etish;

- tarixiy-madaniy qadiriylatlarni muhofazalash, me`moriy yodgorliklar majmualarida ilmiy-tadqiqot, loyixalashtirish, konservatsiya va restavratsiya ishlarini amalga oshirishda tajriba almashish;
 - milliy teatr, raqs va musiqa san`ati sohasida o`zaro gastrollar uyushtirish;
 - O`zbekistonda Xitoy kunlari va Xitoyda O`zbekiston kunlarini ko`proq tashkil etish;
- O`zbekistonning Xitoy bilan madaniy-manaviy hamkorligida turizmning alohida ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib quydagilarga e`tibor qaratish lozim:
- Xitoylik va xorijiy turistlar uchun Buyuk Ipak yo`li yo`nalishi bo`ylab hamkorlikdagi sayyohlik xizmatlarini ishlab chiqish;
 - Yevropaga ketayotgan sayyohlar oqimi uchun O`zbekistonda qisqa oraliq turlarini tashkil etish;
 - turizmni, birinchi navbatta uning infrastrukturasini rivojlantirishga Xitoy investitsiyalari va kreditlarini jalb etish;
 - turizmni rivojlantirish bo`yicha Xitoy tajribasi, jumladan sayyohlik zonalarini tashkil etish tajribasini o`rganish va foydalanish;
 - Xitoylik turistlarni O`zbekistonga ko`proq jalb etishni rag`batlantirish choralarini ishlab chiqish;
 - xitoylik turistlarga viza berish bo`yicha xizmatlarni qulayroq usullarini ishlab chiqish lozim;

O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e`tibor berilmoqda, buning natijasida sportchilarimiz jahon sport maydonlarida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Sport xalqlar o`rtasidagi do`stlik munosabatlarini mustahkamlashning samarali vositasi ekanligini hisobga olib, O`zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligi va Milliy Olimpiya qo`mitasi

O'zbekiston va Xitoy sportchilari ishtirokidagi musobaqalar, turnirlarini o'tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. Т. “Шарк” 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилсам куч. Т.: Маънавият 2008.
3. Каримов И.А. Жаҳон молиявий инқироза, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон 2009.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. -Т.:Ўзбекистон, 2017.

7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
8. Акрамов Э. Рол финансовой систему в развитие экономики Китай. Бозор, пул ва кредит. 2004 й. №4. 53-54 б.
9. Бекмуротов И. Ўзбекистон – Хитой манфаатлар муштираклиги. Жамият ва бошқарув. №4. 2004. 65-66 б.
10. Гулямов С.С., Ибрагимов Н.И., Дадабаев Ю.Т., Хаджаев Б.А Основу дипломатической деятельности Язбекистана. Т., «Янги аср авлоди», 2002,
11. Каримов Ш., Шамсутдинов О. Ватан тарихи. К.1.Т., «Ўқитувчи», 1997, 528-б.
12. Маннонов Б. Ўзбек дипломатиясининг тарихий – маънавий асослари. «Ўзбекистон тарихи», 2002, №2
13. Министерство иностранных дел Республики Ўзбекистан. Дипломатический корпус (справоник) Т., Тип.инфор-ного агентства «Жаҳон» при МИД Республики Узбекистан, 1998, 138 с.
14. Нормативное документу. Дипламатия Республики Ўзбекистан (справочник дипломата). Т., Тип инфорного агенства «Жахон», 1997, 33 с.
15. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Кадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т., «Адолат», 2001, 426-б.
16. Сагдуллаев А., Мавлонов У., Норкулов У, Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлатчилик ва жамият тараққиёти. 1 қисм. Т., «Академия», 2002 71-б.
17. Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. Т., «Адолат», 2001, 369 б.
18. Тараққиёт ва ҳамкорлик йўлларида. Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. Т., «Ўзбекистон», 1993, 239-б.
19. Темир тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Х.Караматов таржимаси. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1996, 344 б.

20. Тюриков В., Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон Республикаси унитилмас воқеалар ва саналар. (1991-1996). К.2.Т., «Ўзбекистон», 2000, 431 б.
21. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиклол йилномаси. Ўзбекистон Республикаси: Одамлар, саналар, вақеалар. (1991-2001). Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2001, 168 б.
22. Тюриков В., Шоғуломов Р. Ўзбекистон Республикаси: 100 саволга 100 жавоб. 2-китоб. Т., «Ўқитувчи», 2001, 168 б.
23. Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йўли. Т., «Шарқ». 1999. 224 б.
24. Ўзбекистон Республикаси – мустақил давлат. Т., «Фан». 1994, 232 б.
25. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет муштамлақачилик даврида. Т., «Шарқ». 2000. 688 б.
26. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.3. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.. «Шарқ». 2000. 560 б.
27. Ўзбекистон тарихи: қисқача маълумотнома. Т., «Шарқ». 2000. 400 б.
28. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., «Ўзбекистон». 1992, 46-б.
29. Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш.
Т., «Ўзбекистон». 2001. 463 б.
30. Қосимов Р., Содиков М. Мустақиллик – олий неъмат. Т., «Шарқ». 2000. 112 б.
31. Жўраев Н., Файзуллаев Т., Усмонов К. Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ». 1998 й. 231 бет.
32. Жўрахонов Ф. Китайская народная Республика: опут вступления в ВТО. Бозор, пул ва кредит. 2004 й №1. 62-64 б.
33. Шодмонов Х. Хитойда суд тизими. «Хаёт ва қонун». 2004 й. №6. 38 б.
34. Қудратхўжаев Ш., Қирғизбоев А. Ўзбекистон – Хитой: ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Т.: 2002.
35. Усмонов Қ. Ўзбекистон тарихи. Миллий истиқлол даври. Тошкент: О`қитувчи, 2017.-Б.327.

36. Shamsutdinov R., Mo`minov X. O`zbekiston tarixi.-Toshkent: SHARQ, 2013.-B.671.